

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTOH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA VA MEHNAT TA'LIM KAFEDRASI
USMONOVA HULKAR
OG'ISHGAN XULQ PSIXODIAGNOSTIKASI

5110900 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots.Абдукаримов

Kafedra mudiri:

dots. M.Xolnazarova

GULISTOH – 2018

R E J A

KIRISH.....	3
1-BOB. OG'ISHGAN XULQ TUSHUNCHASINI ANIQLASH MEZONLARI	
1.1. Og'ishgan xulqni psixodagnostik tasniflash.....	8
1.2. Axloqiy og'ishishlarni tasniflash muammosi.....	18
2-BOB. OG'ISHGAN XULQ PSIXODIAGNOSTIKASI	
2.1.Deviant axloqqa ekzistentsional-gumanistik yondashuv.....	21
2.2.Og'ishgan xulqning psixodinamik aspektlari.....	30
2.3.Og'ishgan xulq - o'rganish natijasi sifatida.....	45
XULOSA.....	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	64
ILOVA.....	66

KIRISH

Tarbiya g'oyat murakkab psixologik jarayondir. Shuning uchun xam ulug' o'zbek pedagogi va ma'rifatparvari Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yo-xud axloq» asarida shunday deb yozganlar. «Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo xayot-yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir»¹.

Yurtboshimiz I. A. Karimov xam o'zlarining nutqlarida Abdulla Avloniy-ning bu fikrining ma'nosini bir karra quyidagicha ta'kidlab o'tgan edilar: «Men Abdulla Avloniyning: «Tarbiya biz uchun yo xayot-yo mamot. yo najot, yo halo-kat, yo saodat-yo falokat masalasidir».-degan fikrini ko'p mushoxada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muxim va dolzarb bo'lgan bo'lsa hozirgi kunda biz uchun xam shunchalik, balki undan xam ko'ra muxim va dolzarbdir. Chunki ta'lim-tarbiya-ong maxsuli, lekin ayni vaktida ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmayli. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi»².

Mustaqillika erishganimizdan so'ng milliy kadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan e'zozlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug'larning xam ta'siri) bu borada katta axamiyatga ega. Lekin ba'zan oilada tarbiyaviy faoliyatning susayishi targ'ibot-tashviqot ishlarining komilligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlari ta'siriga berilish, ma'naviy buzqlik yo'liga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli xollardan biridir. Jamiyatning komil fukarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muxim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oilada tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosat g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi.

¹ А.Авлоний. Туркий гулистон – ёхуд ахлоқ. – Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1967 yil, 27-bet

² Barkamol avlod orzusi. – Toshkent. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2000 yil. 3-b.

Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va kadriyatlarini o'zlashtiradi ijtimoiy xayotga kirib boradi.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar xam tarbiyaviy ishni qiyinlashtiradi, o'smirlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday nizo, kelishmovchiliklar o'smirlarning axloqiga ta'sir etadi. Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqni xisobga olmasa tarbiyasi kiyin o's-mir bola ko'payadi. Yoshlar, o'smirlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etilmasa xulqi og'ishgan bolalar ko'payadi.

Ota-onalar ichkilikka ruju qo'ysa yoki or-nomusni yig'ishtirib qo'yib buzuvchilik qilsa xulqi og'ishgan bolalar ko'payadi. Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari etarli darajada emasligi natijasida tarbiyasi kiyin o'smirlar ko'payadi.

Psixologiyada axloq atamasidan xulq va inson faolligi darajasi, uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko'rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida bixevioristlar uni psixologiya fanining predmeti deb e'lon qilgan vaqt-dan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Dastlab axloq tushunchasi ostida shaxsning istalgan tashqi kuzatiluvchi, "rag'bat - reaksiya" sxemasi bo'yi-cha ishlaydigan reaksiyasini (harakatlanuvchan, vegetativ, nutqiy) tushundilar. Empirik ma'lumotlarning to'planish darajasi bo'yicha asnosida inson axloqining tabiati yanada chuqurlashdi. 1931 yilda esa axloq psixologiyasining asoschilaridan biri Djon Uotson axloq to'g'risida "tuxumni mahsuldor qilish lahzasida dunyoga keluvchi va organizmning rivojlanishi darajasi bo'yicha yanada murakkablashib boruvchi faollikning uzluksiz oqimi" haqida gapirgan edi.

Axloqning zamonaviy tushunchasi tashqi rag'batga reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda ko'rsatilishga axloq "tirik mavjudotga xos bo'lgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirdir". Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko'rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tu-shuniladi.

Quyidagilar axloq-ning ichki tarkibi bo'lib hisoblanadi: motivatsiya va maqsad qo'yish, kognitiv ishlov berish, hissiy reaksiyalar, o'z-o'zini boshqarish jarayonlari. Kelgusi muhokamalarda axloq tushunchasi ostida biz shaxsning individual xususiyatlari va shaxsning tashqi harakat hamda muomalasi shaklida ifodalanuvchi ichki faolligi bilan bog'liq muhitdan kelib chiqqan o'zaro harakati jarayonini tushunamiz.

Inson axloqining birmuncha muhim xususiyatlaridan biri – bu uning o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiyligidir, u jamiyatda shakllanadi va amalga oshadi. Inson axloqining boshka muhim xususiyati-bu uning nutqiy boshqaruv va maqsad qo'yishi bilan mustahkam aloqasi hisoblanadi. Yaxlit olganda insonning axloqi uning ijtimoiylashuvi jarayonini- jamiyatga integrasiyasini aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, o'z navbatida, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishni ko'zda tutadi. Moslashuv-individuallashuv jarayonlarining nisbati bo'yicha, shuningdek, jamiyatda shaxs mavqeyi yuzasidan ijtimoiy moslashuvning quyidagi variantlarini ajratish mumkin:

-radikal moslashuv - shaxsning mavjud ijtimoiy hayotda o'zgarishi orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

-gipermoslashuv - shaxsning o'z oliy yutuklari vositasida ijtimoiy hayotga ta'siri orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

-uygunlashgan moslashuv - shaxsning jamiyatda ijtimoiy talablarga yo'nalishi vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

-konformistik moslashuv - individuallikni bostirish, o'z-o'zini ro'yobga chiqarishni birlashishi hisobiga;

-deviant moslashuv - mavjud bo'lgan ijtimoiy talab (me'yor) lardan chetga chiqish vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarish;

-ijtimoiy-psixologik moslashmaganlik - o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va moslashish jarayonlarini to'sish holati.

Muayyan inson axloqida ijtimoiylashuvning istalgan variantida axloqning umumiy tavsifnomasidan foydalanib, quyidagilarni ifodalash mumkin:

-asoslanganlik - shaxsning ehtiyojlari va maqsadlariga yo'naltirilgan harakatlanishga ichki tayyorlik;

-o'xshashlik - aniq vaziyat bilan kelishish;

-moslashish - ijtimoiy muhitning yetakchi talablariga muvofiqlik;

-haqqoniylik - individuallik axloqining mosligi, uning ushbu shaxs uchun tabiiy ekanligi;

-mahsuldorlik - ongli maqsadlarni amalga oshirish. Shaxs xulqining shunday belgilari borki, ular anchagina xususiy, biroq kam bo'lmagan ahamiyatga egadir:

-faollik darajasi (energiyalilik va tashabbuskorlik);

-hissiy ifodalanganlik (namoyon etilayotgan affektlarning kuchi va xarakteri);

-turg'unlik (turli vaqt va turlicha vaziyatlarda ko'rinishlarning doimiyligi);

-onglililik (o'z axloqini tushunish uni so'z bilan tushuntira olish qobiliyati);

-ixtiyoriylik (o'z-o'zini nazorat);

-egiluvchanlik (muhitning o'zgarishiga javoban axloqni o'zgartirish).

"Axloq" turidagi tushunchaning barcha ko'rib chiqilgan tavsifnomalari uning "shaxsning og'ishgan xulqi" kabi turiga ham to'la ma'noda taalluqlidir.

Tadqiqotmizning dolzarbligi: og'ishgan xulqi o'ta murakkab va ko'p obrazli kategoriya sifatida boshqa maxsus psixologiya bo'limlaridan ajralib turadi. Shaxsning axloqi o'zida jiddiy ijtimoiy muammoni aks ettiradi, chunki aniq ko'rinib turgan shaklda ishga layoqatini yo'qotish, atrofdagilar bilan janjallar, jinoyat sodir etish kabi salbiy oqibatlarga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu devyatsiyaning u yoki bu tarzda istalgan oilaga tegishli bo'lishi mumkin. Shularga asoslanib soha mutaxassislari qatorida barcha bilishi lozimligini ta'kidlagan holda hozirgi tezkor zamonda uchrab turadigan holat sifatida o'rganilishi lozim jabhadir.

Tadqiqotmizning maqsadi: shaxsning og'ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zaruratida insonlarga nazariy va amaliy yordam berish.

Tadqiqotmizning obyekti: Samarqand shahrida joylashgan 51-maxsus maktab, viloyat ruhiy kasalliklar dispantseri va har xil murojaat etuvchilar.

Tadqiqotmizning farazi: quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- deviant xulq tadqiqotlarining an'anaviy ravishda klinik sharoitlarda olib borilishi to'g'ri yqho'lga qo'yilsa,
- agar ayrim insonlar o'zining mas'uliyatidan qochishga intilishida atrof-dagilarga qat'iy e'tiroz bildirsa egotsentrizm kuchli bo'lsa uni oldini olish choralari o'z vaqtida ko'rilsa,
- shunday holatlar bo'ladiki odamlar jamoadan ajralib yakkalanib qoladilar bunday vaqtda tezkor psixologik xizmat ko'rsatilsa,
- psixologiya sohasi statistika bilan bir qatorda shaxs axloqining me'yoriyligi nome'yoriyligini baholashning maxsus mezonlaridan ham foydalanib insonlarga amaliy yordam jumladan korreksion, diagnostik, maslahat ishlari kechiktirilmay olib borilsa,
- shaxslarda uchraydigan o'z-o'zini boshqarishning besamaralilik alomatlari sezilsa ularga ustanovkalarni to'g'ri qo'yishga yo'llantirilsa,
- janjalkashlik va kommunikativ ko'nikmalarning zaifligi sezilsa inson ruhiyatidagi o'zgarishlar dianostika qilinib chora ko'rilsa og'ishishning oldini olish va jamiyatga qaytarish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqotmizning yangiligi: mazkur sohada ancha ishlar qilingan, lekin keng ommaga yetkazish imkoniyati cheklanganligi tufayli barcha shu sohaga qiziqqan mutaxassis yoki insonlarga tushinarli holatda yetkazish.

Tadqiqotmizning ahamiyati: mazkur tadqiqotimizdan pedagog-psixologlardan tashqari talabalar, ota-onalar, tibbiyot xodimlari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

I BOB.OG'ISHGAN XULQ TUSHUNCHASINI ANIQLASH MEZONLARI

1.1. Og'ishgan xulqni psixodiagnostik tasniflash

Biz uchun muhim bo'lgan "shaxsning og'ishgan xulqi" tushunchasini ta'riflashga o'tishdan oldin biz psixologik ko'rinishlarni baholash etalonini berishimiz lozim. Ko'pgina fanlarda ko'rinishlarni "me'yoriy" va "anomal"ga bo'lish qabul qilingan. J.Todfruaning haqqoniy e'tirozi bo'yicha "Qanday axloqni me'yoriy deb hisoblash mumkin?" degan savol inson axloqini, shu jumladan, og'ishgan xulqni tushuntirish uchun markaz hisoblanadi. "Normal", "anomal" axloq tushunchasining ma'nosiga qat'iy ta'rif berish murakkab, ular orasidagi chegara esa o'ta noaniq.

Shunga qaramay, ilmda va kundalik hayotda ushbu tushunchalardan birga-liqda foydalaniladi. Bunda normal axloq atamasi ostida, qoidadagidek, og'riqli xafagarchilik bilan bog'liq bo'lmagan, shu bilan birgalikda, ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan me'yoriy-ma'sullangan axloq tushuniladi. Shunga o'xshash, nome'yoriy axloqni quyidagicha bo'lish mumkin: me'yoriy-ma'sullan-magan, patologik, nostandart.

"Me'yoriy" deb qat'iy mazmunda ushbu fanda ayni vaqtda qabul qilingan me'yor-etalonga muvofiq keluvchi barcha narsa hisoblanadi. Me'yorlarni olish usullarini ko'pincha mezon deb ataydilar. Eng ko'p tarqalgan va umumiy hisoblangan mezonlardan biri-populyasiyada uchraydigan tez-tez takroralanishini hisoblash yordamida istalgan ko'rinish uchun me'yorni aniqlashga imkon beruvchi statistik mezon (usul) hisoblanadi. Matematik statistika nuqtai nazaridan tez-tez, ya'ni 50 foizdan kam bo'lmagan hollarda uchraydigan hamma narsa me'yoriydir. Me'yoriy taqsimot qonuniga muvofiq ravishda 2-3 foiz odamlar "me'yoriy"dan ikki tomon bo'yicha ko'pchilik muayyan bir sifat bo'yicha (intellekt, muloqotchanlik, hissiy turg'unlik) axloqning yaqqol buzilishiga, har ikki tomondan 20 foizi esa nisbatan katta bo'lmagan og'ishlarga ega. Shubhasiz, axloqning aniq shakli (masalan, chekish) me'yoriy qabul qilinishi mumkin, qachonki u ko'pchilik odamlarda uchrasa. Haqiqatan, O'zbekistonda chekishni xulq og'ishishiga tegishli deyish o'rinsiz

bo'lardi, sababi katta yoshli aholi o'rtasida chekuvchilar chekmay-diganlarga nisbatan ehtimol ko'proqdir.

Statistik mezon ifodalanish va hayot uchun xatar darajasi bo'yicha axloqning **sifat-miqdoriy bahosi** bilan uyg'unlashadi. Masalan, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish aqlli chegaralarda (katta bo'lmagan doza va tezlikda) me'yoriy ko'rinish deb tan olinadi, biroq uni suiiste'mol qilish og'ishganlikni anglatadi. Boshqa tomondan odamning o'zi yoki atrofdagilar hayoti uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'diruvchi axloq, uning tezligi, ba'zan esa ifodalanganlik darajasidan qat'iy nazar og'ishish sifatida baholanadi, masalan, suitsid yoki jinoyat.

Gumanitar fanlar statistik bilan bir qatorda shaxs axloqining me'yoriyligi nome'yoriyligini baholashning maxsus mezonlaridan ham foydalaniladi: ***psixopatologik, ijtimoiy-me'yoriy va individual-psixologik.***

Psixopatologik mezonlardan tibbiyotda foydalaniladi. Uni shaxsning og'ishgan xulqi va boshqa sohalarda qo'llashga qiziqtiradigan narsa mavjud. Ehtimol, bu deviant xulq tadqiqotlarining an'anaviy ravishda klinik sharoitlarda olib borilishi bilan bog'liqdir, medikamentoz terapiya esa bunday hollarda keng tarqalgan edi.

Psixopatologik mezon nuqtai nazaridan barcha axloqiy ko'rinishlarni ikkiga: "sog'lik - kasallik" ma'nosida me'yoriy va patologik qismga ajratish mumkin. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining nizomida sog'lik "kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi sifatidagina emas, balki to'liq jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida ta'riflanadi. Kasallik-"organizmning tuzilmasi va funksiyasidagi zararlar uning to'ldiruvchi-moslashuvchi mexanizmlarida sifatli-o'ziga xos shaklida reaktiv mobillashuv davrida ichki va tashqi omillar ta'siri ostida o'z oqimida buzilgan hayot; kasallik ko'pincha bemor hayotiy faoliyatida ozodlikning cheklanishi va muhitga moslashuvning umuman yoki qisman susayishi bilan xarakterlanadi". Bunda patologiya-tibbiy me'yorlar mazmunida "me'yordan har qanday og'ishdir". Yoki boshqacha aytganda "bu aniq nozologik birliklarning umumiy nomi", ya'ni kasallik va uning belgilari tasnifida sanab o'tilgan hollardan biriga mos tushadi.

Kasalliklar tasnifida og'ishgan xulq alohida nozologik birlik sifatida ajratilmagan, shubhasiz, u na patologiyaning shakli, na qat'iy belgilangan tibbiy tushuncha hisoblanadi. Ayni damda og'ishgan xulq me'yor va xarakter aksentuatsiyasi, vaziyatli reaktsiya, rivojlanishning buzilishi, kasallik oldi kabi patologiya o'rtasida yotuvchi ko'rinishlar qatorida keng ko'rib chiqiladi.

Sanab o'tilgan shakllar muammoning xarakteri bilan uyg'unlashgan murakkabliklar va tashxisiy belgilarning noaniqligi bilan xarakterlanadi. Masalan, "xarakter aksentuatsiyasi-bu uning me'yorida boshqalarga nisbatan yaxshi va hatto ko'tarinki mustahkamlikda psixogen ta'sirlarning muayyan turiga munosabatda tanlangan zaiflik ma'lum bo'ladigan alohida chiziqlari o'ta kuchaytirilgan oxirgi variant. Ma'lumki, qator hollarda aksentuatsiya qonunga qarshi harakat, suitsidal axloq, giyohvand moddalarni iste'mol qilish kabi og'ishgan xulq bilan uyg'unlashadi. Ayni damda aksentuatsiyalangan xarakterli ko'pchilik odamlarning axloqi og'ishgan hisoblanmaydi. K.Leongardning fikriga ko'ra rivojlangan davlatlarda aholining 50 foiziga aksentuatsiya xosdir. Bunda ularning ko'pchilik qismi me'yoriy axloqni namoyish qiladi va hatto jamiyat oldida alohida xizmatlarga ega.

Shunga o'xshash psixik patologiya (psixopatiya, nevrozlar, psixozlar va h.k.) sohasidagi istalgan izdan chiqish har doim ham og'ishgan xulq bilan bog'liq emas. Ba'zi hollarda psixik kasalliklar patogen moslashmaslikni keltirib chiqargan holda axloqiy buzilishlar bilan birga borishi mumkin. Psixik parokandalikning boshqa hollarida axloqiy og'ish bo'lmaydi.

Navbatdagi **ijtimoiy-me'yoriy mezon** jamiyat hayotining turli sohalarida o'ta muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning axloqi har kuni baholanadi va turli-tuman ijtimoiy me'yorlar yordamida boshqariladi. (Ijtimoiy me'yorlar, uning turlari va harakat mexanizmlari tushunchalari keyingi bo'limda yoritiladi). Ijtimoiy-me'yoriy mezonlarga muvofiq axloqning ayni damda jamiyat talablariga mos tushishi me'yoriy deb anglanadi va ma'qullanadi. Og'ishgan xulq esa aksincha, asosiy jamoaviy ko'rsatmalar va qadriyatlarga ziddir.

Ijtimoiy-me'yoriy mezon nuqtai nazaridan axloq me'yoriyligining yetakchi ko'rsatkichi shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasi hisoblanadi. Bunda me'yordagi muvaffaqiyatli moslashuv, qadriyatlararo individning xususiyatlari va uni o'rab turgan ijtimoiy muhitdagi talablar, qoidalarning maqbul muvozanati bilan xarakterlanadi. Shubhasiz, ijtimoiy talablarni yaqqol inkor etish kabi indivi-duallikni barobarlash, masalan, konformizm shaklida-shaxs manfaatlarini muhit bosimiga to'liq bo'ysundirish ham birdek muammo hisoblanadi. Yetarlicha moslashmaganlik-bu shaxsiy ahamiyatli bo'lgani kabi muhit talablarini qabul qilish va bajarishga shuningdek, o'z individualligini aniq ijtimoiy sharoitlarda ro'yobga chiqarishning sust layoqat holati.

Moslashmaganlikning ijtimoiy va individual ko'rinishlarini ajratish mumkin. Moslashmaganlikning ijtimoiy ko'rinishlari quyidagilar hisoblanadi:

- past o'zlashtirish, o'z mehnati bilan mablag' ishlab topishga layoqatsizlik;
- hayotiy muhim sohalarda surunkali yoki yaqqol ifodalangan omadsizlik (oilada, ishda, shaxslararo munosabatlarda, sog'liqda;
- qonun bilan nizolar;
- yakkalanib qolish.

Moslashmaganlikning individual ko'rinishlari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish mumkin:

- ijtimoiy talablarga munosabati yuzasidan salbiy ichki tartib (ular bilan kelishmaslik, tushunmaslik, norozilik, qarshi harakat);
- o'zining mas'uliyatidan qochishga intilishida atrofdagilarga qat'iy e'tiroz bildirish, egotsentrizm;
- surunkali hissiy noqulaylik;
- o'z-o'zini boshqarishning besamaraligi;
- janjalkashlik va kommunikativ ko'nikmalarning zaifligi;
- reallikni kognitiv buzib ko'rsatish.

Odam turlicha tuyg'ularni-yengil xavotir va o'ziga ishonchsizlikdan tortib, chidab bo'lmas darajadagi nochorlik, qo'rquv, umidsizlik jazavalarigacha boshidan

kechirishi mumkin. Bunda shaxsning real ijtimoiy maqomi va uning individual ongi o'rtasida bo'linishi yuzaga kelishi mumkin.

So'nggi mezon - **individuat-psixologik mezon** har bir shaxs, uning individualligini, o'sib boruvchi barcha qadriyatlarini aks ettiradi.

Ushbu mezonga muvofik, insonga qo'shilgan zamonaviy talablar uning ijtimoiy farmoyishlarni bajarishga qobiliyatini cheklamaydi, biroq shaxsning o'z-o'zini anglashi va o'ziga xosligini ham ko'zda tutadi. Shu bilan bogliq ravishda bizning zamonda shaxsning eng muhim sifatlari deb quyidagilarni aytish mumkin: tashqi olam va o'ziga nisbatan uning ichki pozitsiyasi, saror sabul qilish va tanlash layoqati, shuningdek, shaxsiy axloqiga mas'uliyati. Ijtimoiy borliqda o'z o'rnini topishi va shaxsiy potensialning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi undagi individual rivojlanishning yetakchi vazifasi deb tan olinadi.

Og'ishgan xulq psixik fenomenlar qatorida o'zining shaxsiy o'rnini egallaydi. U psixik kasalliklar, patologik holat, nevrozlar, psixosomatik parokandalik va x.k. kabi ko'rinishlar qatorida mavjud. Ushbu fenomenlar tibbiy me'yorlar nuqtai nazaridan "sog'liq - kasallik oldi-kasallik" o'qida ko'rib chiqiladi. Shaxsning og'ishgan xulqini, bizning nazarimizda, psixopatologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqish ma'nosizdir. Og'ishgan xulq "ijtimoiyshashuv-moslashmaganlik-yakkala-nish o'qida shaxsning ijtimoiy-psixologik maqomini aks ettiradi.

Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko'pincha **deviant axloq (deviato-**lotin tilida og'ishgan) sinonimi bilan almash-tiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir-birining o'rnini to'ldiruvchi sifatida har ikkala atamani ko'llaymiz - "og'ishgan", "deviant", bunda birinchi atama aniq va o'rganilgan bo'lgani sababli afzal ko'riladi.

O'rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko'rinib turgan murakkabligiga ham-madan avvalo, uning fanlararo xarakteri sababdir. Hozirgi vaqtda atamadan ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq "rasman o'rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan muomala, va inson harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriya-ning predmeti sifatida

yuzaga chiqadi. "Inson faoliyatining ommaviy va mustah-kam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko'rinish" ma'nosida u sosiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiya ning predmeti hisoblanadi. Ushbu ishda biz og'ishgan xulqni birinchi aspektidagi afzallikda-individual faollikning ko'rini-shi sifatida ko'rib chiqamiz.

Tushunchani ta'riflash ko'rinishning muhim belgilarini ajratishni ko'zda tutadi. Shaxsning og'ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shu-ningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zarura-tida yordam bersin.

1. Shaxsning og'ishgan xulqi-bu umumqabul qilingan yoki rasman o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushmaydigan axloq. Boshqacha aytganda, bu harakat mavjud qonunlar, qoidalar, an'analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydi. Deviant axloqni me'yordan og'ishgan axloq sifatida aniqlaganda shuni esda tutish kerakki, ijtimoiy me'yorlar o'zgaradi. Bu, o'z navbatida, og'ishgan xulqqa tarixan o'tkinchi xarakterni beradi. Misol sifatida davr va davlat, chekishga munosabatdan qat'iy nazar turli narsani keltirish mumkin. Shubhasiz, deviant axloq bu har qanday me'yor emas, balki ushbu jamiyat uchun shu vaqtda birmuncha muhim bo'lgan ijtimoiy me'yorlarninggina buzilishidir.

2. Shaxs va deviant axloq, uning namoyon bo'lishi boshqa odamlar tomoni-dan salbiy baholanadi. Salbiy baho jamoatchilik muhokamasi yoki ijtimoiy sank-tsiya, shu jumladan, jinoiy jazo shakliga ega bo'lishi mumkin. Dastavval, sanktsi-yalar istalmagan axloqning oldini olish vazifasini bajaradi. Biroq boshqa tomondan ular shaxs stigmatizatsiyasi -unga tamg'a osish kabi salbiy ko'rinishga olib keladi. Masalan, jazo muddatini o'tab, "me'yoriy" hayotga kaytgan odamning moslashu-vdagi qiyinchiliklari yaxshi ma'lum.

Insonning yangi hayot boshlashga intilishi ko'pincha atrofdagi odamlarning ishonmasligi va ularni rad etishi natijasida barbod bo'ladi. Deviant (giyohvand, jinoyatchi, o'z joniga qasd qiluvchi va h.k.) tamg'asi sekin-asta deviant barobar-likni

(o'z-o'zini his qilish) shakllantiradi. Shunday qilib, axmoqona shuhrat xavfli yakkalanishni kuchaytiradi, ijobiy o'zgarishlarga to'sqinlik qiladi va deviant axloqning takrorlanishini keltirib chiqaradi.

3.Og'ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o'zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda hayot sifatini pasaytirgan holda real zarar keltirishi hisoblanadi. Bu mavjud tartibning noturg'unligi, ma'naviy va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo'rlik va dard-alam yetkazish, sog'ligining yomonlashishi bo'lishi mumkin. Deviant axloq o'zining eng keyingi ko'rinishlarida hayot uchun bevosita xavf tug'diradi, masalan, suitsidal axloq, zo'ravonlik jinoyatlari, "og'ir" giyohvand moddalar iste'mol qilish. Zararning psixologik markeri o'sha odamning o'zi yoki uning atrofida qilarning aziyat chekishidir.

Ushbu belgi shaklidan - destruktiv yoki autodestruktiv bo'lishidan qat'iy nazar og'ishgan xulqning parchalovchi ekanini bildiradi. Bizning nazarimizda radikallik, kreativlik va marginallik kabi yaqin ijtimoiy ko'rinishlar og'ishgan xulq bo'la olmaydi va ushbu belgini qoniqtirmaydi. Garchi ular ham umumqabul qilingan me'yorlardan cheklanib, aholining konservativ holatga mayli bo'lgan qismida g'ashlik uyg'otsa-da, bu fenomenlar jamiyat uchun xatardan ko'ra foydalirokdir. Xullas, radikal moyil bo'lgan shaxslar jamiyatni tubdan yangilashni maqsad qiladilar, bu esa ularda istiqbolli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Kreatorlar nostandart-ligi bilan farqlanib, tadqiqotchilar va ilk kashfiyotchilar sifatida chiqadilar. Sanab o'tilgan fenomenlar uyg'unlashtirish mumkin. Masalan, ko'pincha o'smirlar axloqi barcha uchta tendensiyaning o'zida aks ettiradi pirsing, tatuirovka yoki hatto chandiq bilan tajriba o'tkazgan o'smirni, albatta, deviantlar guruhiga kiritish mumkin emas. Birok heroin iste'mol qiluvchi o'smir hayot uchun yuqori xatarli og'ishgan xulqni yaqqol namoyish qiladi. Shunday qilib, og'ishgan xulq o'z mohiyati bo'yicha destruktivdir.

4.Ko'rib chiqilayotgan axloqni muqim takrorlanuvchi (ko'p marotaba yoki uzoq muddatli) deb xarakterlash mumkin. Agar etti yoshli bola ota-onasidan so'ra-may

shirinliklar uchun uncha katta bo'lmagan mablag'ni olgan bo'lsa, kelgusida ijtimoiy tartibni buzmasa, ushbu axloqni og'ishgan sifatida ta'riflash odobdan bo'lmaydi.

Aksincha, o'smir tomonidan sistematik tarzda anglangan holda pul o'g'irligi sodir etilsa - bu og'ishgan xulq shakllaridan biri hisoblanadi. Boshqa tarkalgan misol: hodisalar katorida spirtli ichimlik iste'mol qilish to'liq yo'l ko'yilgan yoki hatto foydali deb tan olinadi.

Ushbu qoida istisnoga ega. Masalan, hatto bir martalik suitsidal urinish jiddiy xavf tug'diradi va shaxsning og'ishgan xulqi sifatida bahola-nishi mumkin.

5. Axloqni og'ishgan deb kvalifikatsiya qilish uchun u shaxsning umumiy yo'nalganligi bilan muvofiqlashishi zarur. Bunda axloq nostandart vaziyatlar oqibati (masalan, jarohatdan keyingi sindrom doirasidagi axloq), krizisli vaziyat oqibati (masalan, yaqin odamining o'limi tufayli birinchi oy davomidagi qayg'u reaksiyasi) yoki o'z-o'zini muhofazalash oqibati (masalan, hayot uchun real xavfning mavjudligida) bo'lmasligi lozim.

6. Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u tibbiy me'yorlar chegarasida ko'rib chiqiladi. U garchi patologik holat bilan uyg'unlashsada, psixik kasalliklar yoki patologik holat bilan tenglashtirilmasligi darkor. Psixik parokandalik holida psixik kasal odamning patologik axloqiga o'rin bor.

7. Patologik axloq tibbiy me'yorlardan og'ishadi, birinchi darajasi tibbiy aralashuvni talab qiladi va psixiatriyada, masalan, psixik kasallarning deviant axloqi sifatida o'rganiladi. Patologik axloq kasallik holati ta'siri ostida shaxsning o'z harakatlarini anglash va nazorat qilish qobiliyati ahamiyatli tarzda pasayishini nazarda tutadi.

8. Ayni damda muayyan sharoitlarda og'ishgan xulq patologikka o'tishi mumkin. Masalan, muhtoj bo'lib qolgan axloq tizimli kasallikka o'sib o'tishi mumkin-piyonistalik, giyohvandlik. Shunday qilib, og'ishgan xulqli shaxs "sog'liq - kasallik oldi -kasallik" psixopatologik o'qida istalgan joyni egallashi mumkin.

9. Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u ijtimoiy moslashmaganlikning turlicha ko'rinishi bilan birga boradi. Ushbu axloq kasallik yoki o'limga olib keli-shi

shart emas, biroq u tabiiy sur'atda ijtimoiy moslashmaganlik holatini uyg'ota-diyoki kuchaytiradi. Moslashmaganlik holati, o'z navbatida, shaxsning og'ishgan xulqini mustaqil sababi bo'lishi mumkin.

10. Og'ishgan xulsning oxirgi belgisi sifatida uning ifodalangan individual va yosh-jinsiy o'ziga xosligini ta'kidlash mumkin. Og'ishgan xulq dastavval, shaxs-ning jamiyatda tashqi mavjudligini aks ettiradi. U "ichki" jihatdan o'ta turli-tuman bo'lishi mumkin. Deviant axloqning bir xil turlari har xil odamlarda turli yoshda turlicha ko'zga tashlanadi.

11. Odamlarning individual farqlanishi axloq sabablari, ko'rinish, dinamika shakllari, ifodalanganlik tezligi va darajasiga daxl qiladi. Masalan, deviatsiya shakli va uning ifodalanganlik darajasi shaxsning og'ishgan xulqini birmuncha yaqqol tavsiflash hisoblanadi. Ular to'la beozor ko'rinishdan shaxsning hayotiy faoliyatini total buzilishigacha o'zgartirishi mumkin.

12. Boshqa muhim individual xususiyat odamning og'ishgan xulqni qanday-o'zi uchun begona, istalmagan xulq sifatidami, vaqtinchalik koniqtiruvchi yoki oddiy va maftunkor xulq sifatida qarashiga taalluqli. Shaxsning og'ishgan xulqqa munosabati (shaxsiy nuqtai nazari) ko'p holda uning taqdirini belgilaydi.

13. Deviant axloqning yosh va jinsiy farqlanishi garchi asosiy mavzularni ko'rib chiqishda inobatga olinsada, bizning tadqiqotimiz predmeti hisoblanadi. Shuni ta'kidlash zarurki, "og'ishgan xulq" atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa - 9 yoshdan keyin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar hakidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqi yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni yetilmaganlikning, asa-biy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

14. Barcha yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, og'ishgan (deviant) xulosa qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin-bu shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy

me'yorlardan og'uvchi, jamiyat yoki uning o'ziga real zarar yetkazuvchi, shuningdek, uning ijtimoiy moslashmaganligi bilan birga boruvchi turg'un axloqi.

15. Ushbu ta'rif deskriptiv (tasviriy) xarakterga ega va dastavval og'ishgan xulqi mavjud bo'lgan odamlar bilan amaliy ishlashga mo'ljallangan. Bu ta'rif aniq hollarda og'ishgan xulqni tashhis qilish, professional ta'sirni loyihalash, shaxs axloqining dinamikasini va u bilan ishlash samaradorligini baholash kabi professional maqsadlarni amalga oshirishda yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, u boshqa axloqiy fenomenlarda deviant axloqni differensiyalash imkonini beradi.

16. Deviant axloqni ko'rib chiqayotib, biz yaqqol salbiy assosiatsiyani uyg'otuvchi so'zni qo'llashga majburmiz: deviant, addikt, noijtimoiy va ijtimoiy xulqqa qarshi va h.k. Shu bilan birgalikda, aniq shaxs bilan ishlashda biz ongli ravishda kamsituvchi ohangli atamalardan foydalanishdan, shuningdek, tamg'a osishdan tiyilmog'imiz kerak. Shuni esda tutish lozimki, birinchidan, axloqiy muammolar o'ta keng tarqalgan. Ikkinchidan, og'ishgan xulq chegaralarini aniqlash ko'pincha murakkab. Jamiyatdagi o'zgarishlar me'yorlarning, albatta, axloqiy deviatsiya turlarining o'zgarishiga olib keladi. Biroq me'yorlarning o'zi va ulardan og'ishish har qanday ijtimoiy tizimning ajralmas qismidir. Binobarin, ijtimoiy darajada og'ishgan xulq-bu faqat jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro munosabatning mumkin bo'lgan shakllaridan biri. Og'ishgan xulqni ijtimoiy ko'rinish sifatida "tugatish" ehtimoli dargumon. Bundan tashqari, maxsus ko'rib chiqishda deviatsiyalar jamiyat uchun me'yoriy va foydali ekanini isbotlash mumkin, chunki unda istiqbolli o'zgarishlar rag'batlantiriladi.

Individual darajada deviant axloq anchagina muammoli ko'rinadi, chunki shaxsning o'zi va atrofdagi odamlar hayoti uchun real zarar, deviant shaxsning ijtimoiy muhit bilan nizosi, uning ijtimoiy moslashmaganligi kabi salbiy fenomenlar bilan bog'liqdir.

Xususan, og'ishgan xulq shaxsiy darajada - bu shaxsning deviant usul va hayot tarzi shaklida yuzaga chiquvchi ijtimoiy nuqtai nazari. Ma'lumki, ko'pchilik odamlar istasalar jamiyatga nisbatan o'z nuqtai nazarlarini o'zgartirishlari mumkin.

1.2. AXLOQIY OG'ISHISHLARNI TASNIFLASH MUAMMOSI

Psixologik voqeyelikni ilmiy tahlil qilish shakllaridan biri uning ko'rinishlari tasnifi hisoblanadi. Tadqiqotchilarning axloqiy og'ishlarni tizimlashtirishdagi ko'p sonli urinishlari hali yagona tasnif yaratishga olib kelmadi. Murakkabliklarni bir necha sharoitlar bilan tushuntirish mumkin.

Axloqiy deviatsiyaning muammosiga asosiy sabab uning fanlararo xarakterda ekanligidir. Modomiki, "deviant (og'ishgan) xulq" atamasi turli fanlarda turli ma'noda ishlatilarkan, shu sabab axloqiy og'ishlarning ko'p turli xil tasniflari mavjud.

Muammo mavjudligini tushuntiruvchi boshqa sabablar orasida inson axloqi-ning o'ta turli-tuman shakllari va "me'yor" tushunchasining o'zi noaniq ekanligini aytish mumkin. Bularning barchasi umumiy mezonlarni ajratishdek, og'ishgan xulqning har xil ko'rinishlarining yagona tasnifini yaratishda ham qiyinchilik tug'diradi. Ayni damda tizimlashtirish mavjud va alohida fanlar doirasida keng foydalaniladi. Shartli ravishda axloqiy og'ishlar tasniflash muammosida uchta asosiy yondashuvni ajratish mumkin: ***ijtimoiy-huquqiy, klinik va psixologik.***

Ijtimoiy-xuquqiy yondashuv doirasida, o'z navbatida, sosiologik va huquqiy yo'nalishiy ajratish mumkin.

Sotsiologiya axloqiy deviatsiyani bir necha asoslar bo'yicha guruhlanadigan ijtimoiy ko'rinish sifatida ko'rib chiqadi:

- a) miqyosidan qat'iy nazar ommaviy va shaxsiy og'ishlar ajratiladi;
- b) oqibatlar ahamiyati bo'yicha-salbiy (zararli oqibatlar keltirib chiqaruvchi va potensial xavf tug'diruvchi) va ijobiy;
- v) subyekt bo'yicha - aniq shaxslar, norasmiy guruhlar(masalan, yo'lto'sar guruhlar faoliyati), rasmiy tuzilmalar, shartli ijtimoiy guruhlar (masalan, ayollarning ichkibozlikka ruju ko'yishi) og'ishi;
- g) obyekt bo'yicha-iqtisodiy, maishiy, mulkiy buzilishlar va boshqalar;
- d) muddati bo'yicha - bir vaqtli va davomli;

e) buzilgan me'yor turi bo'yicha-jinoyatchilik, ichkilikbozlik (piyonistalik) giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish, axloqsiz xulq, daydilik, fohishabozlik, bezorilik, boqimanda bo'lish, sotqin, rasmiyatchilik, terrorizm, irqchilik, genotsid, destruktiv madaniyatlar.

Huquqiy og'ishgan xulq atamasi ostida hozirgi vaqtda qabul qilingan va jazo-lash xavfi bilan taqiqlangan qonuniy me'yorlarga qarshilik qiluvchi barcha narsa tushuniladi. Shaxs xarakatlarini huquqiy baholashdagi yetakchi mezon ularning jamiyatga xavf solish darajasi hisoblanadi. Harakatlarning jamiyatga xavf solish xarakteri va darajasi bo'yicha ularni jinoyat, ma'muriy va fuqarolik-huquqiy deliktlar, intizomiy kiliqlarga bo'linadi. Jinoyatlar, o'z navbatida, jamiyatga xavf tug'dirish darajasiga ko'ra quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: uncha og'ir bo'lmagan - ikki yilgacha ozodlikdan mahrum etish; o'rtacha og'ir-besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish; og'ir jinoyatlar - o'n yilgacha ozodlikdan mahrum etish; alohida og'ir - o'n yildan ortiq ozodlikdan mahrum etish yoki ancha qat'iy jazo belgilash.

Jinoyatlar harakatlarning xarakteri bo'yicha ham bo'linadi: shaxsga qarshi jinoyat, iqtisod sohasidagi jinoyat, davlat hokimiyatiga qarshi jinoyat-lar, harbiy xizmatga qarshi jinoyat, insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyat. Shunday qilib, Jinoyat va Fuqarolik kodekslari konuniy nuktai nazardan og'ishgan xulqning turli shakllari tasnifi hisoblanadi.

Vaqt huquqiy og'ishning yanada yangi shakllarini tug'dirmoqda, masalan, reket, uyushgan jinoyatchilik, xakerlik. Bu, o'z navbatida, qonunchilikka doimiy o'zgartirish kiritish zaruriyatini tug'diradi. Ko'rib chiqilgan tasniflarga axloqiy devyatsiyaga **pedagogik** yondashuvni qo'shimcha qilish mumkin. Bizning fikrimizcha, pedagogik tasniflar kamroq differensiyalangan va ko'pincha boshqa fanlardan o'zlashtirilgan. Ko'pincha "og'ishgan xulq" tushunchasini "moslashmaganlik" tushunchasi bilan tenglash-tiriladi. O'quvchini tarbiyalash va o'qitishning asosiy pedagogik vazifalari olamida maktab o'quvchisining og'ishgan xulqi maktabga moslashmaganlik kabi ijtimoiy moslashmaganlik xarakteriga ham ega.

Maktabga moslashmaganlik tuzilmasiga o'zlashtirmaslik, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatning buzilishi, hissiy buzilishlar kabi uning ko'rinishlari katorida axloqiy og'ish ham kiradi. Pedagoglar bilan hamkorlik tajribasi maktabga moslashmaganlik bilan uyg'unlashuvchi bir-muncha keng tarqalgan quyidagi axloqiy og'ishlar haqida gapirishga imkon beradi. Bu intizom buzilishi, sababsiz maktabga kelmaslik, giperfaol axloq, tajovuzkor axloq, oppozitsion axloq, chekish, bezorilik, o'g'rilik, yolg'on.

Ijtimoiy moslashmaganlikning maktab yoshida anchagina masshtabli belgilari bo'lib quyidagilar yuzaga chiqishi mumkin: psixofaol moddalarni muntazam iste'mol qilish (ichuvchi eritmalar, ichkilik, giyohvand moddalar), jinsiy deviatzi-yalar, fohishabozlik, daydilik, jinoyat sodir etish. Oxirgi vaqtlarda maktab o'quvchilarining og'ishgan xulqida nisbatan kompyuter o'yinlari yoki diniy sektalarga qaram bo'lib qolish bilan bog'liq bo'lgan yangi holatlar kuzatilmoqda.

Bolalikdan va maktab yoshidan og'ishgan xulq ko'rinishlari haqidagi masala yanada chalkash. Umuman shaxsning "mustaqil bo'lmagan" bu boskichida deviant axloq xdqida gapirish mumkinmikin? Pedagoglar va ota-onalar ko'pincha kichik bolalarda zararli odatlar (barmog'ini so'rish, tirnog'ini chaynash), ovqat yeyishdan bosh tortish, quloq solmaslik, tajovuzkor axloq, masturbasiya, giperfaol axloq kabi axloqning shunday salbiy ko'rinishlari bilan to'knashadilar.

Afsuski, jamiyatda og'ishgan xulqqa nosog'lomlik kabi munosabatda bo'lish ustundir. Uning ko'zga ko'ringan shakllari bilan to'knashgach, odamlar avvalo tibbiy tashhis va unga tegishli tibbiy yordam olishga harakat qila-dilar.

Deviant axloq masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda birmuncha ishlab chiqilgan va anchagina odatlangan klinik yondashuv hukmronlik qiladi. Ayni damda ma'lumki, shaxs axloqiga psixologik jihatdan - shaxsning o'ziga nasihat qilib ta'sir ko'rsatish mumkin. Ayonki, mutaxassis og'ishgan xulq tasnifiga ikkita yetakchi yondashuvni aniq differentsiyalashi zarur - **psixologik va klinik**.

II BOB. OG'ISHGAN XULQ PSIXODIAGNOSTIKASI

2.1.Deviant axloqqa ekzistentsional-gumanistik yondashuv

Psixologik yondashuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinish-larni ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida kuriladi:

- buzilgan me'yor turi;
- axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
- ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
- axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.

Psixologik yondashuv doirasida og'ishgan xulqning turli tipologiyasidan foydalaniladi. Ko'pchilik mualliflar, masalan, K.A. Kleyberg axloqiy deviatsi-yaning uchta asosiy guruxini ajratadi: **salbiy**(masalan, giyohvand moddalar iste'mol qilish), **ijobiy** (masalan, ijtimoiy ijodkorlik) va **ijtimoiy-xolis** (masalan, tilanchilik) .

Shaxs og'ishgan xulqining ko'rinishlarini tizimlashtirishning birmuncha to'liq va qiziqarli variantlaridan biri bizning nazarimizda S.P.Korolenko va T.A.Donskixga tegishli. Mualliflar barcha axloqiy deviatsiyani ikkita katta guruhga bo'ladilar: ***nostandart va destruktiv axloq.***

Nostandart axloq tafakkurning yangi shakli, yangi g'oyalar, shuningdek, axloqning ijtimoiy stereotiplari doirasidan chiquvchi harakatlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday shakl garchi aniq tarixiy sharoitlarda qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqsada, biroq jamiyatning kelgusidagi rivojlanishida ijobiy rol o'ynovchi faollikni ko'zda tutadi. Nostandart axloqqa misol qilib, novatorlar, inqilobchilar, oppozisionerlar, bilimning qaysidir sohasini, ishga oluvchilarni keltirish mumkin. Ushbu guruhlarni qat'iy ma'noda og'ishgan xulq deb tan olinishi mumkin emas.

Destruktiv axloq tipologiyasi uning maqsadlariga muvofiq tuziladi. Bir holatda bu ijtimoiy me'yorlarni (qonuniy, ma'naviy-etik, madaniy) buzishga yo'naltirilgan tashqi destruktiv maqsadlar va munosib ravishda tashqi destruktiv axloq. Ikkinchi holda - shaxsning o'zini dezintegratsiyaga yo'naltirilgan ichki destruktiv maqsad-lar, uning regressiv va munosib ravishda ichki destruktiv axloqdir.

Tashqi destruktiv axloq, o'z navbatida, addiktiv va antiijtimoiyga bo'linadi. Addiktiv axloq reallikdan ketish va istalgan his-tuyg'uni olish maqsadida maxsus faollik yoki qandaydir moddalardan foydalanishni ko'zda tutadi. Antiijtimoiy axloq mavjud qonun va boshqa odamlar hukuqlarini qonunga qarshi, asosial, axloqsiz-beadab axloqlar shaklida buzuvchi harakatlardan iborat.

Ichki destruktiv axloq guruhida S.P.Korolenko va T.A.Donskix quyidagilarni ajratadilar: suitsid, konformistik, narsissik, fanatik va autik axloq. Suitsid axloq o'z-o'zini o'ldirishning yuqori xavfi bilan xarakterlanadi. Konformistik-individuallikka muhtoj, faqat tashki avtoritetga yo'naltirilgan axloqdir. Narsisik - shaxsiy buyukligi tuyg'usi bilan boshqariladi. Fanatik - qandaydir g'oya, nuqtai nazarga ko'r-ko'rona berilgan holatda yuzaga chiqadi. Autistik-odamlar va atrof-dagi harakatlardan bevosita chegaralanganlik, shaxsiy fantaziyasi olamiga sho'ng'iganlikda ko'zga tashlanadi destruktiv axloqning barcha sanab o'tilgan shakllari, olimlar fikriga ko'ra, hayot sifatining yomonlashishi, o'z axloqiga tanqidni pasaytirish, kognitiv xatolar (sodir bo'lganlarni qabul qilish va tushunishda) o'z-o'zini baholash va hissiy buzilishlar kabi deviant mezonlarga javob beradi. Nihoyat, ular katta ehtimol bilan shaxsning yakkalanib kolishigacha bo'lgan ijtimoiy moslashmasligiga olib keladi.

Psixologik adabiyotlarda shaxs og'ishgan xulqining ko'rinishlarini tasniflashda boshqa yondashuvlarni ham uchratish mumkin.

Sanab o'tilgan mezonlarga muvofiq og'ishgan xulqning uchta asosiy guruhini ajratamiz: **antiijtimoiy (delinkvent) axloq, asotsial (axloqsiz) axloq, autodes-truktiv (o'z-o'zini parchalovchi) axloq.**

Antiijtimoiy (delinkvent) axloq - bu qonun me'yorlariga qarshi chiquvchi, ijtimoiy tartib va atrof-dagi odamlar farovonligiga xavf soluvchi axloq. U qonunchilik bilan taqiqlangan istalgan harakat yoki harakasizlikni o'z ichiga oladi.

Katta odamlar (18 yoshdan kattalar)da delinkvent axloq, ayniqsa, o'z ortidan jinoiy yoki fuqarolik javobgarligi va tegishli jazoni boshlab keluvchi qonunbuzarlik shaklida namoyon bo'ladi. O'smirlarda (13 yoshdan boshlab) delin-kvent axloqning quyidagi turlari ustunlik qiladi: bezorilik, mayda o'g'rilik, o'g'rilik, vandalizm,

jismoniy zo'rlik, giyohvand moddalarni sotish. Bola yoshida (5 yoshdan 12 yoshgacha) o'zidan kichik yoshdagi bolalar va tengdoshlariga nisbatan zo'ravonlik, hayvonlarga shafqatsiz munosabat, o'g'rilik, mayda bezorilik, mulkni buzish, undirish kabi shakllari birmuncha keng tarqalgan.

Asotsial axloq - bu shaxslararo munosabatlarning tinchligiga bevosita xavf soluvchi, axloqiy-ma'naviy me'yorlarni bajarishdan qochuvchi axloq. U tajovuz-kor axloq, jinsiy deviatsiya (tartibsiz jinsiy aloqalar, fohisha-bozlik, yomon yo'lga kirish, vuaerizm, ekskibisionlik va boshqalar), pulga azart o'yinlarga tortilish, daydilik, boqimandalik sifatida namoyon bo'ladi.

O'smir yoshida uydan chiqib ketish, daydilik qilish, maktabga bormaslik yoki ta'lim olishdan bosh tortish, tajovuzkor axloq, promiskuitet (tartibsiz jinsiy aloqa), graffiti (devorga uyatsiz xarakterdagi rasmlar chizish va yozuvlar yozish), submadaniy deviatsiyalar (sleng, shramlash, tatuirovkalar) birmuncha tarqalgan.

Bolalarda esa uydan qochib ketish, daydilik, maktabga bormaslik, tajovuzkor axloq, g'iybat qilish, yolg'on, o'g'rilik, ta'magirlik (tilanchilik) kabi ko'rinishlarda uchraydi.

Asotsial axloqning chegaralari, ayniqsa, o'zgaruvchan, chunki u boshqa axlo-qiy deviatsiyalardan ko'ra madaniyat va vaqtning ta'siri ostidadir.

Autodestruktiv (o'z-o'zini parchalovchi axloq) - bu tibbiy va psixologik me'yorlardan og'ishgan, shaxsning rivojlanishi hamda umuman o'ziga xavf soluv-chi axloq, o'z-o'zini parchalovchi axloq zamonaviy dunyoda kuyidagi asosiy sha-klarda yuzaga chiqadi: suitsidal axloq, ozuqaga muhtojlik, kimyoviy moddalarga muhtojlik (*psixofaol moddalarni suiiste'mol qilish*), fanatik axloq (*masalan, destruktiv-diniy madaniyatga tortilish*), autik axloq, viktim axloq (*jabrlanuv-chining axloqi*), hayot uchun aniq ko'rinish xatarli faoliyat (*sportning ekstremal turlari, avtomobilda yurganda tezlikni o'ta oshirish va boshqalar*).

O'smir yoshda autodestruktiv axloqning xususiyati (*avvalgi shakliga o'x-shash*) uning guruhli qadriyatlar bilan bilvosita bog'liqligi hisoblanadi. O'smir kiritilgan guruh autodestruksiyaning quyidagi shakllarni tug'diradi: giyohvand-likka mute

bo'lib qolgan axloq, o'z-o'zini kesish, kompyuterga bog'lanib qolish, ozuqa addiksiyalari, kamroq-suitsidal axloqdir.

Bolalik yoshida chekish va toksikomaniyaga o'rin bor, biroq umuman olganda ushbu yoshdagilar uchun autodestruktsiya davri ham xarakterlidir. Biz shaxsdagi og'ishgan xulqining turli ko'rinishlari ikkita - o'ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo'nalishli «destruktiv axloq»ning yagona o'qida joylashganini ko'ramiz.

Destruktiv ifodalanganlikning yo'nalishi va darajasi bo'yicha og'ishgan xulqni quyidagi shkala bo'yicha takdim etish mumkin: antiijtimoiy (*faol-destruktiv*) - asosial (*passiv-destruktiv*) - o'z-o'zini parchalovchi (*passiv-autodestruktiv*) - o'z joniga qasd kiluvchi (*faol-autodestruktiv*).

Og'ishgan xulqning alohida turlarini ajratish va ularni o'xshash belgilar bo'yicha tizimlashtirish garchi ilmiy tahlil maqsadida oqlangan bo'lsada, shartli hisoblanadi. Real hayotda alohida shakllar ko'pincha uyg'unlashadi yoki kesishadi, og'ishgan xulqning alohida aniq hollari individual bo'yalgan va takrorlanmas bo'ladi. Ikkita - o'ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo'nalishli «destruktiv axloq»ning yagona o'qida joylashganini ko'ramiz.

Destruktiv ifodalanganlikning yo'nalishi va darajasi bo'yicha og'ishgan xulqni quyidagi shkala bo'yicha takdim etish mumkin: antiijtimoiy (*faol-destruktiv*)-asotsial (*passiv-destruktiv*)-o'z-o'zini parchalovchi (*passiv-autodestruktiv*) - o'z joniga kasd kiluvchi (*faol-autodestruktiv*).

Og'ishgan xulqning alohida turlarini ajratish va ularni o'xshash belgilar bo'yicha tizimlashtirish garchi ilmiy tahlil maqsadida oqlangan bo'lsada, shartli hisoblanadi. Real hayotda alohida shakllar ko'pincha uyg'unlashadi yoki kesishadi, og'ishgan xulqning alohida aniq hollari individual bo'yalgan va takrorlanmas bo'ladi.

Buzilishlar (katta yoshdagilar uchun) fanda quyidagicha ifodalanadi:

F10-19 - psixik va axloqiy buzilish oqibatida psixofaol moddalarni (spirtli ichimliklar, opioidlar, kannabinoidlar, sedativ va uxlatuvchi moddalar, kokain, kofeinni kiritgan holda qo'zg'atuvchilar, gallyutsinogenlar, tamaki, boshqa psixofaol

moddalardan foydalanish yoki iste'mol qilish bilan uyg'unlashgan ichuvchi eritmalar) iste'mol qilish;

F50-59 - fiziologik buzilish va jismoniy omillar (ovqat qabul qilishning buzilishi; noorganik tabiatda uyquning buzilishi, organik buzilish yoki kasallik sabab bo'lmagan jinsiy disfunktsiya, tug'ishdan keyingi davr bilan bog'liq bo'lgan psixik va axloqiy buzilishlar, bog'liqlik chaqirmaydigan moddalarni suiiste'mol qilish, masalan, steroidlar, vitaminlar) bilan bog'liq bo'lgan axloqiy sindromlar;

F63 - odatlar va intilishlarning (azart o'yinlarga patologik moyillik; piromaniya, patologik kuyishlar; patologik o'g'rilik-kleptomaniya; soch yulish - trixotilomaniya; odatlar va intilishlarning boshqa buzilishlari) buzilishi;

F65 - jinsiy afzal ko'rishning buzilishi (fetishizm; fetishistik transvestizm; ekskizitsionizm; vuvuerizm; pedofillik; sadomazoxizm; jinsiy afzal ko'rishning ko'plab buzilishlari). Aytib o'tish lozimki, ushbu tahrirda gomoseksualizm yo'q.

Ko'rsatilgan bo'limlar ushbu axloqqa tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan kasallik buzilishlariga muvofiq belgilar va aniq tashhisiy mezonlardan iborat. Masalan, «Patologik o'g'rilik (kleptomaniya)» rubrikasi quyidagi tashhisiy belgilardan iborat:

a)shaxs yoki boshqa odam uchun ko'rinmas sabablarsiz ikki yoki undan ortiq o'g'irlik hollari;

b)individdning o'g'irlikka kuchli intilishi, harakatni sodir etish oldi-dan zo'riqish tuyg'usi va undan keyingi yengillikni ifodalab beradi .

MKB-10, shuningdek, bolalar va o'smir yoshidagilar uchun xarakterli bo'l-gan boshlanish bilan axloqiy buzilish tipologiyasini ham o'z ichiga oladi.

F90 - giperkinetik buzilishlar;

F91 - axloq buzilishi;

F91.0 - oilaviy muhit bilan aralangan axloqning buzilishi;

F91.1 - axloqning ijtimoiylashmagan buzilishi;

F91.2 - axloqning ijtimoiylashgan buzilishi;

F91.3- oppozision-chaqiruvchi axloq;

F91.8 - boshqalar;

F91.9 - aniqlanmagan axloq buzilishi;
R2 - axloq va hissiyotlarning aralashgan buzilishi;
R94 - ijtimoiy jihatdan funksional buzilishi;
R95 - tikoqli buzilish;
F98.0- noorganik enurez;
F98.1- noorganik enkoprez;
F98.2 - ilk yoshdagi bolalarda oziqlanishning buzilishi;
F98.3 - tanovul qilib bo'lmaydigan narsani yeyish;
F98.4 - stereotipli harakatlanuvchan buzilish;
F98.5 - duduqlanish;
F98.6 - shoshilib gapirish.

Ushbu axloqiy buzilishlar 6 oydan kam bo'lmagan muddatda saqlanishi zarur bo'lgan bir necha xarakterli simptomlarga ega bo'lganda tashhis qo'yiladi. Masalan, axloq buzilishiga quyidagi simptomlarni o'z ichiga oluvchi takrorlanuvchi va turg'un axloqqa taalluqlidir:

- 1) bemor o'z yoshi uchun g'ayrioddiy tarzda jahlining tez-tez yoki og'ir ko'tarilishini namoyon qiladi;
- 2) kattalar bilan tez-tez bahslashadi;
- 3) kattalarning talablarini bajarishdan tez-tez faol bosh tortadi yoki ularning qoidalarini buzadi;
- 4) ko'pincha ataylab shunday ishlarni qiladiki, boshqa odamlarning xo'rligini keltiradi;
- 5) o'z xatolari yoki axloqida ko'pincha boshqalarni ayblaydi;
- 6) ko'pincha xafa bo'ladi yoki uni osongina o'ksitadilar;
- 7) ko'pincha g'azablanadi yoki achchiqlanadi;
- 8) ko'pincha g'azabnok yoki qasoskor;
- 9) ko'pincha foyda olish yoki majburiyatdan qochish maqsadida aldaydi yoki va'dasini buzadi;

10) ko'pincha mushtlashuv chiqaradi (bunga-aka-ukalar va opa-singillar bilan mushtlashish kirmaydi);

11) boshqa odamlarga jiddiy jismoniy zarar etkazishga qodir bo'lgan qurollardan foydalanadi (masalan, chavgon, g'isht, singan butilka, pichoq, o'qotar qurollar);

12) ota-onasining ma'n etishiga qaramay kech qorong'igacha ko'chada qoladi (agar og'ishishning boshlanishi bo'lsa - 13 yoshgacha);

13) boshqa odamlarga nisbatan jismoniy shafqatsizlikni namoyon etadi (masalan, qurbonni bog'laydi, uni kesadi, kuydiradi);

14) hayvonlarga nisbatan jismoniy shafkatsizlikni namoyish etadi;

15) begonalar mulkini g'araz bilan buzadi;

16) qasddan xatar yoki jiddiy zarar yetkazish maqsadida olov yoqadi;

17) uydan yoki boshqa joydan qimmatbaho buyumlarni o'g'iraydi;

18) tez-tez dars qoldiradi;

19) uydan kamida ikki marta yoki bir marta qochgan, biroq bir kechaga (zo'ravonlikdan qochish holatidan tashqari);

20) jabrlanuvchining ko'z o'ngida jinoyat sodir etadi (hamyonni yulib olish, sumkani qirqish);

21) boshqa birovni jinsiy faoliyatga majburlaydi;

22) tegajoq axloqni tez-tez namoyish etadi (qasddan og'riq, kamsitish, qiynov yetkazish);

23) begona uy va avtomobillar ichiga kiradi. Izoh. 11, 13, 15, 16-simptomlar konstatastiyasi uchun.

20, 21, 23-bandlar uchun ularning loaqal bir marotaba yuzaga kelishi talab etiladi. Axloq buzilishi faqat agar buzilish shaxsning dissosial buzilishi, shizofreniya, maniakal epizod, giperkinetik buzilish, ruhiy azoblanish holatidagi epizod, hissiy buzilish kabi boshqa buzilishlar mezoniga javob bermagan taqdirda tashxislanadi.

Asosiy tizimlashtirishga qo'shimcha ravishda hiyla xususiy tasniflardan ham foydalaniladi. M.Ratter bola yoshidagi axloq buzilishini ikkita asosiy guruhcha-larga bo'ladi: jamiyatga axloqning ijtimoiylashgan shakllari va ijtimoiylashmagan tajovuzkor axloq. Birinchi guruxdagi bolalar va o'smirlar jamiyatga qarshi guruhlar ichida moslashadilar, guruhda antiijtimoiy xarakatlar sodir etayotib, xissiy buzilishlar belgilarini namoyish etmaydilar. Ijtimoiylashmagan tajovuzkor axloq vakillari, aksincha, yaqin atrofdagilar - boshqa bolalar va oilalari bilan juda yomon munosabatda bo'ladilar. Ular uchun dushmanlik, salbiylik, qo'pollik va qasos-korlik xarakterlidir.

D.N. Oudsxorn bolalar yoshidagi axloqiy buzilishni giperfaollik va antiijtimoiy tajovuzkor (yoki oppozitsion) axloq bo'lishni taklif qiladi. O'smir yoshidagilar uchun antiijtimoiy (delinkvent) axloq, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish, nomaqbul jinsiy axloq xarakterlidir.

A.Ye.Lichko fikri bo'yicha bola va o'smir yoshida axloq buzilishining 7 turini o'z ichiga olgan R.Djenkins tasnifi keng tarqalgan: giperkinetik reaksiya, ketish reaksiyasi, autistik tipdagi reaksiya, xavotir reaksiyasi, qochoqlik reaksiyasi, «ijtimoiylashmagan tajovuzkorlik», guruhli qonunbuzarlik.

O'smirlarning deviant axloqi mahalliy tibbiy adabiyotlarda etarlicha yoritil-gan. U qoidadagidek, delinkvent axloq, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar-ni barvaqt iste'mol qilish, jinsiy axloq deviatsiyasi, suisidal axloq, uydan qochib ketish va daydilik kabi shakllarni o'z ichiga oladi. Bunda o'smir buzilgan axloqi-ning, ayniqsa, klinik aspektlarini ishlab chiqib, tadqiqotchilar uning ijtimoiy-psixologik determinantining yetakchi rolini ta'kidlaydi.

Axloqiy deviatsiya tasniflarini taqqoslab, biz bu axloqiy fenomenlarning farq-li xususiyatlarini anchagina ifodalashimiz mumkin.

Ijtimoiy axloqning asosiy variantlari:

1.Me'yoriy («standart») axloq - ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushadi, atrofdagilarning ma'qullashini uyg'otadi va

me'yoriy moslashuvga olib keladi. Umuman olganda, u garchi individuallikdan mahrum bo'lsada, vaziyatga teng, mahsuldor.

2. Marginal (cheklangan) axloq - ijtimoiy me'yorlarning eng oxirgi chegara-sida turadi, me'yor chegaralarini buzadi va kengaytiradi, atrofdagi odamlarda zo'riqish tug'diradi.

3. Nostandart («nome'yoriy») axloq - ushbu jamiyatda ushbu vaqtda qabul qilingan kamchilik odamlarga xos me'yorlar chegarasidan chiqadi. Ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

- kreativ (ijodiy) axloq - yangi g'oyalarni amalga oshiradi, o'ziga xos, mahsuldor, taraqqiyparvar, me'yorning o'zini o'zgartirishga olib kelishi mumkin, biroq qator hollarda atrofdagilarning qarshiligini uyg'otadi;

- deviant (og'ishgan) axloq - mahsuldor emas, destruktiv yoki autodestruktiv, atrofdagilarning ma'qullamasligini uyg'otadi.

4. Patologik axloq - tibbiy me'yorlardan og'ishadi, aniq simptomlar shaklida namoyon bo'ladi, mahsuldorlik va shaxsning ishga layoqati tushib ketadi, atrofdagilarning hayrixohligi yoki ko'rquvini uyg'otadi. Patologik axloq vaziyatga teng emas, u shaxsning o'z harakatlarini anglash va ularni boshqarish qobiliyati-ning pasayishi bilan birga boradi. Tizimli reaktivligi yoki gormonal fonni aniqlagancha to'liq biologik o'zgarishni uyg'otishi mumkin.

Umuman olganda shaxsning og'ishgan xulqi shaxslar munosabati tizimi orkali sinuvchi ijtimoiy va biologik omillarning murakkab o'zaro harakati natijasi hisoblanadi.

2.2.OG'ISHGAN XULQNING PSIXODINAMIK ASPEKTLARI

Biz axloqiy devyatsiya shakllanishiga yordamlashuvchi ijtimoiy va biologik sharoitlarni ko'rib chikdik va nihoyat shaxs og'ishgan xulqining psixologik mexanizmlari xaqidagi masalaga yetib keldik. Nima uchun aynan bir xil sharoitlarda odamlar, shu jumladan, genetik o'xshash bir tuxumli egizaklar ham turlicha axloqni namoyon qiladilar? Qaysi tuzilma osti va shaxs xislati og'ishgan xulq uchun javobgardir? Qanday psixologik mexanizmlar deviantlikni keltirib chiqaradi va uni qo'llab-quvvatlaydi? Nihoyat, shaxsning qaysi xislatlari og'ishgan xulqning shakllanishiga qarshilik qiladi? Ushbu bo'limda biz shaxs og'ishgan xulqining mohiyatiga nur yog'diruvchi yetakchi psixologik konsepsiyalar sharhi yordami bilan qo'yilgan savollarga javob topishga urinamiz.

Shaxs va uning axloqini ko'rib chiquvchi ekzistentsional-gumanistik yonda-shuv bilan sharhni insonning ahamiyatli tavsifnomasi aspektidan boshlaymiz. Bizning nazarimizda bu munosabatda avstriyalik psixiatr va psixolog **V. Frankl** (1905-1997) kontsepsiyasi kattagina qiziqish uyg'otadi. Uning tushunchasida maxsus insoniy tavsifnomalar - bu dastavval e'tiqod, ozodlik va mas'uliyat. Inson-ning ruhiy mavjudligi o'z vijdoni va Olloh oldida mas'uliyatni his qilgan holda qadriyatlar olamida (uning hayotining obykti holatini inobatga olib) erkin o'z-o'zini aniqlash shaklida mazmunli mavjud bo'lishni ko'zda tutadi. Axloq muammolari yoki bu darajada ko'rib chiqilgan noyobliklar, ya'ni e'tiqodsizli ko'rinishlari bilan bog'liq.

V. Frankl fikricha odamlardagi fundamental motivatsiya kuchi mazmunga intilish hisoblanadi. Odamlar nimaga yashayotganlarini tushunishlari uchun mazmunni topishlari talab qilinadi, "Mazmunni berish mumkin emas, uni topish kerak", chunki u har bir inson uchun noyob va ularning o'zlari tomonidangina amalga oshirilishi mumkin. Agar inson o'zidan tashqarida mazmun ko'rmasa, ekstremal vaziyatda yashash maqsadsiz, mazmunsiz va mumkin emasdek tuyiladi. Giperreflektsiya (o'ta o'z-o'zini refleksiylash) va giperintentsiya (o'z istaklarini qoniqtirishga o'ta e'tibor qaratish)-odamlar o'z menlari doirasidan chiqib

ketmasliklari uchun foydalanishni lozim ko'rgan ikkita asosiy usul. O'zidan tashqaridagi nimadadir mazmunni uchta turlicha usul bilan topish mumkin:

- 1) nimadir qilish, hayot berish (ijodkorlik kadriyatlari)
 - 2) hayotdan nimanidir olish (kechinmalar kadriyatlari);
 - 3) o'zgartirish imkoni bo'lmagan, masalan, tuzalmaydigan kasallikda taqdirga munosabat bo'yicha muayyan mavqiyeni egallash (munosabatlar qadriyatlari).
- Bundan tashqari, o'tmishda o'rni bo'lgan kechinmalar va din-bu odamlar mazmun topishi mumkin bo'lgan ikki soha.

Mazmunga intilish frustatsiyalanganda (nima bilandir o'rab ko'yilgan) ekzistentsial frustatsiya holati tug'iladi. Apatiya va zerikish – uning asosiy tavsifnomalari. Ekzistentsial frustratsiya o'z-o'zidan na patologik, na patogen hisoblanmaydi. Odamlar xavotiri, hatto ularning hayot mazmunini behuda izlash bilan shartlangan umidsizligi - bu kasallikdan ko'ra ruhiy kambag'allikdir. Hayotning bemazmunligi tuyg'usi bir vaqtning o'zida intellektual samimiy va vijdonlilik belgisi bo'lishi mumkin.

Shaxsning me'yoriyligi va anomalligi V.Frankl fikricha, uning hayotga, o'limga va o'z takdiriga munosabati bo'iicha nuqtai nazari xususiyatlari bilan belgilanadi. «Azoblanish, gunoh va o'lim-men aytib o'tgan inson mavjudligining uchta birligi - hayot mazmunini hiech bir darajada kamaytirmaydi, biroq qandaydir ijobiy narsaga transformasiyalanadi", V.Frankl. Inson mazmunni amalga oshirib o'z-o'zini ham ro'yobga chikaradi. "Iztirobdagi mahkum mazmunni amalga oshirarkan, biz insonda eng odamiylikni ro'yobga chiqaramiz".

Shaxsning anomal nuqtai nazari V. Frankl tomonidan fatalistik kabi belgilanadi. Bu holda odam o'zini qadriyatlarda o'z-o'zini aniqlash uchun mas'ul sifatda va albatta, o'z shaxsiy hayotining faol ishtirokchisi sifatida qaramaydi. Buning oqibatida u turli-tuman - tabiiy, ijtimoiy va psixologik -determinantlarga o'z hayotiy yo'lini belgilashga imkon beradi. Bu holda odamning o'zi mazmunsizlik, bo'shliq va ma'nosizlikdan azoblanadi. Ichki to'liq holatini V.Frankl Ekzistentsial vakum deb ataydi. Ekzistentsial frustatsiya va ekzistentsial vakum - alohida "noogen

nevrozlar"ning bevosita sabablaridir. V.Frankl noogen nevrozini "ruhiy muammo, ma'naviy yoki etik nizolar orqali chaqiriluvchi" sifatida ta'riflaydi.

Ekzistentsial vakum alohida odamlarda nafaqat mazmunsizlik va nevrozni chaqiradi, balki ruhiy azoblanish holati, giyohvandlik va tajovuzkorlik kabi muallif ularga nisbatan "ommaviy nevrotik triada" atamasini ishlatuvchi jamoatchilik falokatini ham tug'diradi. Masalan, o'z-o'zini o'ldirish kabi ruhiy azoblanish holatining bunday oqibati V.Frankl fikriga ko'ra 85 foizda egzistentsial frustatsiya oqibati hisoblanadi. Giyohvandlikka kelsak, past hayotiy maqsadlarga ega bo'lgan (yoki maqsadi bo'lmagan) odamlar hayotda aniq belgilangan yuqori maqsadi bo'lgan odamlarga qaraganda yuqori darajadagi ehtimol bilan mazmunni giyohvand moddalardan totishni sinab ko'radilar. Natijada odamlar tajovuzkor bo'lib qoladilar, qachonki ularni bo'shliq va mazmunsizlik tuyg'usi qamrab olsa. V.Frankl taxmin qiladiki, egzistentsial vakum va egzistentsial frustatsiya yildan yilga yanada kengroq tarqalmoqda. Yoshlar taqlid qilish uchun (hayotdan mazmun topgan tarbiyachilar va kumir) ijobiy namunalar yetishmasligidan yaqqol azoblanmokdalar.

Shunday qilib, V. Frankl qarashlariga muvofiq og'ishgan xulq shuning uchun yuzaga keladiki, chunki odamlar o'z ruhlarini bostiradilar, mazmunni izlash mas'uliyatidan kochadilar. Og'ishgan xulqli odamga yordam ko'rsatish degani unga o'z ruhiy «men»ini anglash va kelgusida uning o'z mavjudligi mazmunini ochish bilan o'z taqdiri uchun mas'uliyatni kabul qilish yordamlashish demakdir.

Ekzistentsial psixologiyaga insonparvar nazariyalar, masalan, **K. Rodjersning** (1902-1987) mijozga markazlashgan psixologiya (psixoterapiya)si yaqindan yondashib turadi. Ushbu tizimda tayanch o'rinni o'zligi va o'z-o'zini dolzarblashtirish tushunchalari egallaydi. O'zlik yoki Men-konsepsiyasi - bu insonning o'zi xaqidagi tajriba natijasi hisoblanuvchi va hayoti davomida uzluksiz o'zgarib boruvchi tasavvurlari yigindisidir. O'z-o'zini dolzarblashtirish - shaxsning o'ziga boshidan joylangan potensial imkoniyatlariga muvofiq o'sish va rivojlanishga bo'lgan intilishi. O'z-o'zini dolzarblashtirish tendentsiyasi odamda yaqqol ko'zga tashlanadi va shaxsiy farovonlik belgisi hisoblanadi. O'z-o'zini dolzarblashtiruvchi

shaxs qator maxsus tavsifnomalarga ega: yangi tajribaga ochiklik, o'z organizmiga ishonish, nazoratning ichki lokusi (qaram emaslik, mustaqillik, mas'uliyatlilik), jarayonda mavjud bo'lishga intilish (o'sish va rivojlanish). Me'yordagi (sog'lom) shaxs nisbatan o'z-o'zini dolzarblashtiruvchi shaxs idealiga yaqindir .

Anomal shaxsda o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni o'rab blokirovka qilingan va faqat imkoniyatda mavjud. K.Rodjersning fikricha, asosiy to'siq shartli qadriyatlar deb nomlanuvchi tizimda ildiz otgan. Shartli kadriyatlar shunga olib keladiki, odam o'ziga va boshqa odamlarga faqat ular qaysidir shartli ideallarga mos tushgan hollardagina ijobiy munosabatda bo'ladi. Shubhasiz, ijobiy munosabatda odam oliy qadriyat sifatida ko'rib chiqiladi va uning qandaydir shartsiz ideal-talablarga muvofiq qabul qilinishga sazovor bo'ladi.

Shartli qadriyatlar bolalikda oilada shakllanadi, masalan, ona bolaning muhabbat va hurmatga ehtiyojidan foydalanib, o'zining anik talablarini bajarmaganligi uchun salbiy munosabat bildiradi. Keyin bolaning o'z-o'ziga hurmati onasi zo'rlab tiqishtirgan qadriyatlar va ularga munosiblik layoqatiga bog'liq bo'lib qoladi. Qat'iy zo'rlab tiqishtirgan shartli qadriyatlar ostida shaxs mohiyati bo'yi-cha aylanadi.

Shunday kilib, me'yoriy rivojlanish uchun odam o'z-o'zini anglash tajribasiga ega bo'lishi lozim. Aksincha, o'zi noreal, noto'g'ri tasavvur, qarama-qarshi tajriba, o'z o'zini ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyoj va tashqi bahoga bog'liqlik o'rtasidagi ichki nizo – bularning barchasi shaksiz muammoli axloqni uyg'otadi. Albatta, shaxsiy va axloqiy muammolarni bartaraf etish uchun maxsus sharoitlar yaratgan holda dolzarblashtirish jarayonini rag'batlantirish zarur. Masalan, mijozga markazlashgan terapiya davomida bu - shaxsga samimiy qiziqish, insonni shartsiz ijobiy qabul qilish, unga nisbatan bahosiz munosabatdir.

Shaxsning o'z-o'zini dolzarblashtirish tushunchasi **A. Maslou** (1908-1970) uchun ham tayanch hisoblanadi. Uning qarashlariga asosan inson yaxlit tizim sifatida ijtimoiy sharoitlar ta'siri ostida amalga oshuvchi tug'ma ehtiyojlarga muvofiq harakat qiladi. Ehtiyojlar iyerarxiyasini yaratadi -quyidan yuqoriga:

-fiziologik ehtiyojlar;

- xavfsizlikka ehtiyoj;
- muhabbat va mehribonlikka bo'lgan ehtiyoj;
- tan olinish va bahoga ehtiyoj;
- o'z-o'zini dolzarblashtirishga ehtiyoj - inson imkoniyatlari, iqtidori va qobiliyatini amalga oshirish.

Oliy ehtiyojlar faqat qachonki quyilari qondirilgach faollashadi. O'z-o'zini dolzarblashtirish qobiliyat sifatida ko'pchilik odamlarda mavjud, biroq faqatgina kamchilikda u qaysidir darajada sodir bo'lgan hisoblanadi. Bunday odamlar -o'z-o'zini dolzarblashtiruvchi shaxslar-me'yoriy rivojlanish namunasi bo'lib chiqadilar, chunki eng yuqori darajada inson mohiyatini to'la ruyobga chiqaradi.

O'z-o'zini dolzarblashtirish konsepsiyasidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Og'ishgan xulq sabablaridan biri o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayonini blokirovkalash jarayoni bo'lishi mumkin. Bu shuni anglatishi mumkin: bazali ehtiyojlarni frustatsiyalash (ularni qondirish yo'lidagi tusiqlar); quyi darajadagi ehtiyojlarni individual qayd qillish; oliy ehtiyojlar yoki nofarovon ijtimoiy sharoitlarning rivojlanmaganligi. Agar turli sabablar kuch; muhabbat, ijodkorlik va ruhiyat orqali o'z-o'zini dolzarblashtirish mumkin bo'lmasa, u deviant axloq orqali o'zini ifodalash bilan almashtirilishi mumkin.

E.Fromm (1900-1980) ijodi ko'rib chiqilayotgan g'oya bilan ohangdosh (uning "neofreydizm" deb nomlanuvchi rasmiy mansubligiga qaramay). Ye.Frommninng fikriga ko'ra, o'zi va tabiat bilan uyg'unlashuvga intilib, odam ekzistentsial qarama-qarshiliklarni, engishga majbur. Bu - hayot va o'lim dioxotomiyasi; barcha imkoniyatlarni amalga oshirishga intilish va buning uchun hayotning davomiyligi etarli emasligi o'rtasidagi nizolar; yolg'izlik tuyg'usi va boshqa odamlar bilan bog'liqlik o'rtasidagi qarama-qarshilik.

Odam bu obyektiv qarama-qarshiliklarni bartaraf eta olmaydi, biroq ularga turlicha reaksiya qilishi mumkin. Inson o'zining dunyoga qarshi turishi, yolg'izlik va kuchsizlikni turlicha mexanizmlar yordami bilan yenga oladi. Bu mexanizmlar

"ozodlikdan qochish"ga olib keladi. Ular "ijobiy ozodlik"ka-muhabbat va mehnat orqali dunyo bilan asl aloqaga qarshi turadi.

E.Fromm avtoritar xarakterning birinchi mexanizmini belgiladi. Avtoritar shaxs o'z shaxsiy menidan, ozodlik va avtonomlikdan voz kechadi, Uning oxirgi ko'rinishi sadomazoxistlik kompleksi hisoblanadi. Qochishning bu turi birmuncha to'liq qismi sardorlar bilan simbiotik tarzda qo'shilib ketuvchi totalitar davlatlarda ko'zga tashlanadi. Qochishning ikkinchi mexanizmi-inson individuallikni yo'qotib ijtimoiy shablonni taqdim etuvchi shaxs turini to'liq o'zlashtiruvchi avtomatlashtirshgan konformizmdir. Uchinchi yo'l - sestruktivlik - uni parchalash orqali olamdan begonalashish bilan bog'liq. Sadistlikdan farqli ravishda destruktivlik hukmronlikka intilmaydi, biroq u barcha tiriklikni o'likka aylantiradi.

Xullas, ekzistentsial-gumanistik psixologiya inson shaxsining ruhiy mavjudligi va o'z-o'zini dolzarblashtirishi kabi oliy ko'rinishlariga urg'u beradi. Ruhiy mavjudlik o'z shaxs chegaralaridan chiqishni ko'zda tutadi. U insoniy qadriyatlarda aniqlash, o'z individualligi va o'z-o'zini ro'yobga o'z-o'zining muhimligini tan olish bilan bog'liq. U erkinlik mas'uliyat, burch, xayrixohlik, hurmat, qiziqish, muhabbat, va ijod quvonchi kabi oliy tuyg'ularda aks etadi. Deviantlikda biz butunlay boshka kartinani kuzatamiz. Shuning uchun axloqni, shubhasiz, shaxsning ekzistentsial muammolari vauning ruhiy rivojlanishining buzilishi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Z.Freydning psixotaxlilidan chiqqan psixodinamik nazariyalar insoniy axloqning ongsiz mexanizmlarini ochib beradi.Og'ishgan xulqni psixoanalitik atamalarda ifodalash asosiy tushunchalar va psixik hayotning modeliga dastlabki tushunchani kiritishni talab qiladi.

Dastlab shaxs rivojlanishining Freyd nazariyasi biologik jihatdan asoslangan edi va jarayonlarning birinchi instinkti - ichki talablarni ta'kidladi. Z.Freyd ikkita yetakchi instinktlarni ajratdi: hayot instinkti va o'lim instinkti. Tajovuzkor instinkt ishlab chiqaruvchi va o'lim instinktining bosh ko'rinishi, tajovuzga moyillik esa - barcha odamlar uchun xarakterli boshlang'ich instinktiv tendensiya deb tan olindi.

Z.Freyd insonning psixik hayotini ongli va ongsizga ajratdi. Ongsizlik ong uchun bosim tufayli (shaxsan ongsiz) kirib bo'lmaydiganini, ongsizdan ong (ongoldi)ga oson o'tishi mumkin bo'lganini o'z ichiga oladi. Ongli nutq yordamida ularni anglanadigan qiluvchi ichki va tashqi qo'zg'atuv-chilar, instansiyalar bo'lib chiqadi.

Boshqa tayanch lahza psixik apparat tuzilmasini kiritish xisoblanadi. Z.Freyd tomonidan taklif qilingan tuzilmaviy model uch tizim yoki kuchdan iborat: Id, Ego va super-Ego. Shaxsning psixologik farovonligi bu uch tuzilmaosti qanchalik o'zaro samarali ta'sir etishiga bog'liq.

Sodda istaklar, impulslar, irrasional intilishlar, qo'rquv, xohish uyg'unligi va fantaziyalardan iborat psixikaning o'sha (kattagina) qismini belgilash uchun foydalangan atama. Bu «tartibsiz, qaynovchi hissiyotlar to'ldirilgan doshqozon». Id faoliyati koniqish tamoyilnigl muvofiq ehtirosning erkin razryadkasini ta'minlashga yo'naltirilgan. Id o'zini verبالغacha obrazlar va ramzlarda ifodalaydi, vaqt, axloq, cheklovlar yoki qarama-qarshiliklar bo'lmasligi mumkinligi haqidagi tushunchalarga ega emas.

Freyd bilimning bu ibtidoiy darajasini tush ko'rish, hazil va gallyusinatsiyalar, tafakkurning boshlangich jarayoni tilida yashashni davom ettiruvchi deb atadi. Id nisbatan o'zgarmas va to'la ongsiz, biroq uning mavjudligi va hukmronligi derivappar-fikrlar, harakatlar va hissiyotlardan chiqarilishi mumkin.

Ego - Id intilishlarini boshqarish uchun ushbu oila chegaralarida ochiq bo'lgan yo'lni topish va hayot talablariga moslashish imkonini beruvchi o'sha vazifalar nomidir. Ego butun hayot davomida uzluksiz, biroq birmuncha tezroq - ilk go'daklikdan boshlab rivojlanadi. Ego reallik tamoyiliga muvofiq ishlaydi va tafakkurning ikkinchi jarayoniga beshik hisoblanadi (ketma-ket, mantiqiy, prognozlashga mo'ljallangan). Shunday qilib, Ego Idning talablari va muhit cheklovlari orasidagi vositachi hisoblanadi. U ongli bo'lganiday, ongsiz aspektlarga ham ega. Ongli Ego - ko'pchilik odamlar "Shaxsiy men" yoki "Men" atamasi ostida tushunadigani, ongsiz Ego o'z ichiga himoyaviy imkoniyatlarni oladi.

Qoidadagidek, Ego Iddan zaifroq, shuning uchun u Idning xohishlarini harakatda go'yoki o'zining shaxsiy xohishlari kabi ro'yobga chiqaradi. Chiqib ketish yo'lini topmagan tuyg'ular razryadka talab chiluvchi va xavotir kabi his qilinadigan ichki zo'riqish manbaiga aylanadi. Z.Freyd xavotirni qoniqmaslikning maxsus holati, real yoki potensial xavfni universal reaktsiya sifatida ta'riflaydi. Xavotir quyidagicha bo'lishi mumkin:

- realistik (tashqi dunyoda xavfni tug'diruvchi);
- axloqiy (super-Ego bilan nizoda chaqirilgan);
- asabiy (Idning instinktiv impulsleri bilan nizoda tutilgan). Xavotir ko'pchilik axloqiy va shaxsiy muammolar asosida tuzilmaviy nizo mavjudligi haqida xabar beradi.

Id va Egodan tashqari ota-onalar ta'sirining qoldiq aksi hisoblanuvchi psixik apparatning bir qismi uchun super-Ego tushunchasi kiritilgan. Z.Freyd fikri bo'yicha super-Egoning bosh vazifasi Id talablarini Egoga ma'naviy ta'sir vositasida bo'ysundtirish xisoblanadi. Ideal, o'z-o'zini nazorat vijdon ushbu instantsiyaning asosiy vazifalari sifatida yuzaga chiqadi. Ichki standartlar va ta'qiqlar asosida dastavval ota-ona figuralari bilan o'xshashlari yotadi. Bola, avvalo, muhabbatni yo'qotish ko'rkuvu yoki tashqi, ota-onalar e'tibori tomonidan tajovuzga uchrashdan xavotirlanib o'z-o'zini cheklashga tutinadi. Oqibatda u ichki avtoritet - super-Ego oldida qo'rquvdan kelib chikib harakat kilishni boshlaydi. Vijdon ovozig a karshi sodir etilgan harakatlar to'laqonli bo'lmagan tuyg'ular, aybdorlik hissi yoki jazoga ehtiyojni uyg'otishi mumkin. Shaxsiy muammolar teng darajada etarlicha shakllanmaganlik oqibati bo'lganidai, o'ta qat'iy super-Ego ko'rinishi bo'lishi mumkin.

Masalan, suitsidal axloq ko'pincha sevimli odamini yo'qotish oqibatida ruhiy azoblanish holati fonida shakllanadi. Ba'zi odamlar bunday vaziyatda "me'yoriy" g'am o'rniga o'zini his qilishining keskin yomonlashishi va menning qashshoqlashishi bilan alohida melanxoliya (ruhiy azoblanish) holatini boshdan kechiradilar. Muhabbat obyektu real tarzda emas, insonning ichki dunyosida

bo'lishi mumkin. Z.Freyd aytadiki: «Obyekt muhabbat obyekt sifatida yo'qotilishi mumkin. Qayg'uda kambag'allashgan atrofdagi olam, melanxoliyada esa-Men-ning o'zi". Super-Egoning shafqatsiz tanqidiga uchragach munosib bo'lmagan, hech nimaga yaramaydigan, o'z-o'ziga hurmatni yo'qotgan bo'ladi. Bunda aslida o'z-o'zini tanqid qilish insonning o'z shaxsiga o'z mos tushadi, biroq diqqat bilan qaralganda uning sevgan shaxsiga taalluqlidir. Qolgan obyekt bilan Menning o'xshashligi-tenglashishga o'rin bor. Obyektning yo'qolishi Men yo'qolishiga aylanadi, tanqid esa o'z-o'zini tanqidga olib keladi. Agar voz kechish mumkin bo'lmagan (ayni vaktda real obyektдан voz kechadilar) muhabbat o'ziga narsistik o'xshashlikda chiqish topsa, unda bu (ichki) obyektga nisbatan nafrat namoyon bo'ladi. Aynan shu obyektga sadistlik qoniqishigacha bo'lgan azoblanish yetkaziladi. "Faqat bu sadistlik o'z-o'zini o'ldirishga moyillik topishmog'ini yechib beradi", - deb ta'kidlaydi Z.Freyd.

Z.Freyd tomonidan shaxsning tiklanishi psixojinsiy rivojlanish stadiyasi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu, ayniksa, diqqatni tananing muayyan qismiga - oral fazadan, anal va fallik orqali genitalga yo'naltirilgan ketma-ket o'tish stadiyasidir. Klassik drayvlar nazariyasi (instinktlarning psixik ko'rinishlari) ni asos qilib olgan: agar bola o'ta frustatsiyalangan yoki o'zining psixojinsiy rivojlanishini qaysidir bosqichida o'ta qoniqish olsa, unda u ushbu bosqichda qayd qilinadi.

Xarakter shu kabi fiksatsiyaning ifodasi sifatida tushuniladi. Xarakterning buzilishi va albatta inson axloqi ham shunday fiksasiya bilan tushuntiriladi. Masalan, agar odamga taxminan bir yarim yoshida (oral faza) e'tibor bermay ko'yilsa yoxud erkalatib yuborilsa, shaxsning ruhiy azoblanish xislatini shakllantirishni chaqirishi mumkin. Odamning nimaga fiksasiya qilingani va unda nima markaziy ekaniga qarab, uning xarakterini oral, anal yoki fallik deb ifodalashgan.

Z.Freydning keyingi ishlari bugungi kunda psixotahlilning "himoya" umumiy tushunchasida birlashtiriladigan jarayonlarni ko'rib chiquvchi Egopsixologiya kabi yo'nalishining rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Rivojlanishning nizoli fazalaridan kelib chiqan holda biz odamni qanday

tushunishimizga o'xshab odamlarni ham ular uchun xarakterli bo'lgan xavotirni uddalash usullariga muvofiq tasniflashimiz mumkin.

Tug'ilgan vaqtdan boshlab va etarlicha uzoq muddatda bola himoyasiz, kimgadir qaram bo'ladi, buning natijasida obyekt (ahamiyatli inson) ni yo'qotish ko'rkuvi bilan bog'liq tuyg'u yuzaga keladi. Bu ko'rquv, o'z navbatida, sevimli bo'lish ehtiyojini tug'diradi. Bolaning Egosi nisbatan zaif, bu bosqichda obyektzni yoki muhabbatni yo'qotish ancha keyingi bosqichlarda saqlanib koladigan xavotirni tug'diradi. Keyinroq xavotirning bosh manbalari kastrasiya ko'rkuvi (fallik stadiyada) va super-Ego oldidagi ko'rquv (latent davomida va u tug'aganidan keyin) bo'ladi.

Egoning asosiy vazifasi shaxsiy Menni xavotirdan himoyalash hisoblanadi, degan tasavvur **Anna Freydning** (1895-1982) «Men psixologiyasi va himoyalovchi mexanizmlar» nomli klassik ishida rivojlantirilgan (1936). Himoya mexanizmlar ongsiz ishlaydi va qiyinchiliklar bilan kurashda individual usulning kismi bo'lib qoladi. Ushbu odamda qanday himoyalar ustunlik qilishi quyidagi omillarning o'zaro ta'siriga bog'lik:

- 1) bolaning tug'ma temperamenti;
- 2) ilk bolachikda kechirilgan stresslar tabiati;
- 3) ota-onalar va boshqa ahamiyatli odamlarning himoya usuli;
- 4) hayotda himoyadan foydalanish tajribasi (madad).

Quyidagilar birmuncha muhim himoyalovchi mexanizmlar deb tan olinadi:

bosh bosish (siqib chikarish) - vositasida nomaqbul impuls yoki g'oya ongsiz bo'ladshan (boshqa barcha himoya turlari asosida yotuvchi bosh yashirin mexanizm) jarayon;

-rad etish-tashqi dunyoning qandaydir talablari, shaxs uchun uning kasalliklari oqibatini inkor qilish;

-proyektsiya- vositasida individ uchun nomaqbul istak yoki tasavvur tashqi dunyoga qo'shimcha yozib qo'yiladigan jarayon;

-reaktsiyaning shakllanishi impulsni uning qarama-qarshisiga aylantirish (masalan, onaga bo'lgan siqib chiqarilgan nafratni u haqida o'ta g'amxo'rlikka nisbatan);

-regress - rivojlanishning kam yetilgan darajasiga qaytish; subyaimatsiya

-ijtimoiy maqbul o'zanda instinktiv impulslar yo'nalishi, masalan, intellektual muhitga, ijodga.

Himoyalarning jo'n (odatiy, arxaik) va hiyla yetuk (ikkilamchi) bo'lishi qabul qilingan. Arxaik hgshoyalar orasida kuyidagilar ajratiladi: oddiy izolyasiya, inkor etish, buyuk nazorat, sodda ideallashtirish va qadsizlanish, proyeksiya, introyeksiya va proyektiv o'xshashlik, parchalash, dissoiasiya.

Oddiy izolyasiya namunasi bo'lib, go'dak shunchaki uxlab kolishi, ya'ni avtomatik ravishda o'ta ta'sirlanish yoki koniqmaslikdan boshqa holatga o'tishi vaziyati xizmat qilishi mumkin. Kattaroq yoshda zo'rikishdan qochishga intilishda shu ongsiz maqsad bilan kimyoviy moddalardan foydalanishga moyillik namoyon bo'ladi.

Boshqa misol piyonistalik (giyohvandlik)ka bog'liqligi, muammo mavjudligini astoydil rad etuvchi va vaziyatni nazorat qilishiga ishonuvchi inson axloqi bo'lishi mumkin. Ushbu holda rad etish kabi himoya mexanizmi qo'shiladi. Bu reaksiya-ildizi bilan bolalar egotsentrizmiga ketuvchi arxaik jarayonning tovushi, bunda ongni "Agar men buni tan olmasam demak u sodir bo'lmagan" deguvchi dologik ishonch boshqaradi.

Proyektsiya va introyektsiya, o'z navbatida, sadistli eksplozivlik (portlash), yaqin odamning o'limi holatida ruhiy azoblanish holati kabi ko'rinishlar asosida yotishi mumkin. Shunga o'xshash odamlar ko'rquv vaziyatlarida salbiy tuyg'ularni egallashga va taqlid qilib azob beruvchi (proyektiv o'xshashlik) sifatni o'rganib olishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, xavotirni yengishda ongsiz mexanizmlar kabi arxaik himoyadan foydalanish psixologik kochishga yoki hayotni bezovta qiluvchi omillarni kam hosilli rad etishga olib kelishi mumkin.

Ikkilamchi, ancha yetuk, himoyaviy mexanizmlar taxminan psixojinsiy rivojlanishning ancha keyingi bosqichlarida shakllanadi va nisbatan hiyla mahsuldor-ichki nizolarni yaxshi yechishga hamda reallikka yaxshi moslashishga ko'maklashuvchi hisoblanadi. Bu-siqib chiqarish, regressiya, izolyatsiya, intellektualizatsiya, ratsionalizatsiya, moralizatsiya, ajralgan tafakkur, o'ziga qarshi aylana, aralashtirish, reaktiv ta'lim, somatizasiya, bekor qilish, reversiya, o'xshashlik, tashqaridan reaktsiya qilish, seksualizasiya, sublimasiyadir.

Umuman olganda, psixologik himoyalovchi deb nomlanadigan fenomenlar ko'plab foydali vazifalarga ega. Ular sog'lom moslashuv va ijodkorlik shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Ular hatto Men qandaydir xavfdan himoyalaydi. Axloqi himoya xarakterini namoyish qilgan shaxs ongsiz tarzda quyidagi vazifalardan birini bajarishga intiladi:

- 1) ba'zi xavf soluvchi ulkan affektdan qochishga (masalan, xavotir yoki g'am) yoki uni egallashga;
- 2) o'z-o'zini hurmatlashni saqlab qolish;
- 3) tashqi xavfdan ketish.

Shaxs rivojlanishida Egoning muhim roli "Ego kuchi" tushunchasida aks etgan. Ego kuchi-bu shaxsning reallikni hatto u o'ta qabul qilinmaydigan paytda ham qabul qilishga layokati(o'xshash soddagina himoyani jalb etmay).O.Kernberg ko'rsatishicha, Egoning kuchi xavotirga, impulslar nazorati va subtimator faoliyatga yaxshi tolerantlikda namoyon bo'ladi.

Shaxs muammosi (shu jumladan, axloqiy) me'yoriy moslashuv uchun xatto himoyalar noteng yoki etarli bo'lmagan takdirda ham paydo bo'ladi. Z.Freyd keyingi ishlarida psixopatologiyani qarshi odatiy kurashlarga qaramay xatar his kilinib, himoya ishlamaydigan va qachonki xatarni niqoblovchi axloq keng ma'noda o'z-o'zini parchalovchi hisoblangan holat sifatida ko'rib chikadi.

Psixoanalitik tasavvurlarga muvofiq Ichki nizolar dinamikasida muhim rolni bola dunyosida bosh obyekt bo'lib chikuvchi ota-onalar o'ynaydi. Psixotaxlilda ancha keyingi yo'nalish - **obyekt munosabatlari nazariyasi** ketma-ket obyekt

munosabatlarida notinchlik bilan bog'liq bo'lgan psixologik muammolar haqidagi g'oyani rivojlantiradi. Bolaning ota-onasi bilan munosabatni qanday kechirishi, u tomonidan ahamiyatli obyektlarning qanday tuyg'ulari internalizatsiyalashadi, otalarning qanday obrazlari uning butun hayoti davomida shaxs axloqiga ta'sir qilib, uning ongsiz mavjud bo'lishda davom etishi ulkan ahamiyat kasb etadi.

Self-psixologiya doirasida (shaxsiy Men psixologiyasida) himoya shaxsiy Menning qarama-qarshi bo'lmagan, ijobiy tuyg'ularini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Masalan, ikkita bir xil suitsidal maqsadli odam subyektiv kechinmalar bo'yicha farklanishi mumkin. Bittasi o'zini yomon his qiladi, o'zining hych nimaga arziyas mavjudligi uchun gunohkor sezadi. Obyekt munosabatlari nazariyasi tilida u uni yomon deguvchi internalizatsiyalangan obyektlar bilan to'lib toshgan. Boshqasi o'zini axloqsizdanda ko'ra ichki bo'shlig'i bor, Nuqsonli, xunuk deb his qiladi. Subyektiv ravishda u o'zini anglashi mumkin bo'lgan internalizatsiyalangan ichki obyektlardan mahrum bo'ladi.

Alfred Adlarning individual psixologiyasi og'ishgan xulq psixologik sabablarining ko'plab shakllari tushunishga yordamlashdi. A.Adler asosiy hayotiy maqsad individuallikni rivojlantirishni belgilovchi asosiy omil deb hisobladi. Umumiy ko'rinishda - bu boshkalar ustidan ustunlikka erishish maqsadi. Uning aniq mazmuni o'ta turli-tuman bo'lishi mumkin: hokimlik, go'zallik, boylik, kuch, mashhurlik, bilimlilik va h.k. ga intilish. Ustunlikka erishish maqsadi o'z zaifligini boshdan kechirishda tug'iluvchi to'laqonli bo'lmagan tuyg'uga reaksiya kabi hayotning birinchi yillarida paydo bo'ladi. Zaiflik to'laqonli emaslik tuygusi sifatida boshdan kechiriladi. To'laqonli emaslik tuyg'usi Adler fikricha, dastlab 4-5 yoshda paydo bo'ladi. Uni ikkita asosiy omillar kuchaytiradi. Birinchidan, tug'ma nuksonlar (sog'likning zaiflashuvi, jismoniy yetishmovchiliklar, o'ta past bo'y), ikkinchidan, bu-bolani oilada noto'g'ri tarbiyalash (o'ta erkalatish, bolaga muhabbatning yetishmasligi). To'laqonli emaslik tuygusi bolaning muhit talablarini qay darajada uddalashiga qaytma proporsionaldir.

Ustunlik maqsadiga erishishga yo'nalganlik me'yori boshqa odamlar (umumiyluk tuyg'usi asosida) bilan hamkorlikka yo'nalish bilan uyg'unlashgan, demak insonning shaxsiy yutuqlari umuman olganda, odamlarning jamoatchilik hayotini yaxshilashga xizmat qiladi. Har qanday me'yordagi odamga to'laqonli emaslik tuyg'usi va unda tug'ilgan o'z-o'zini tasdiqlash (mukammal, tik, ustunlik)ga intilish o'rtasidagi ichki nizo begona emas. To'laqonli emaslik tuyg'usini yengishning ikkita asosiy usuli mavjud: kompensatsiya (saqlanganlarini kuchli rivojlantirish hisobiga buzilgan xislatlar ko'rinishini kamaytirish) va yetishmovchiliklarni yuqori kompensasiyalash (buzilgan xususiyatni yukori ishlash darajasigacha kuchaytirilgan mashq olib borish). Tutma ijtimoiy tuyg'ular ham inson zaifligini to'ldiradi. Odamlar to'laqonli emaslik tuyg'usini kompensasiyalash uchun turlicha yo'llardan foydalanadilar. Boshqalari esa "qonuniy" usulga murojaat qiladilar-muvaffaqiyat, hukmronlik, guruhlariga birlashish.

To'lakonli emaslik tuyg'usini etarlicha bo'lmagan yoki axloqsiz tarzda kompensasiyalash o'ta o'tkir kechiniladi va to'laqonli emaslik kompleksiga o'tadi. Bu to'laqonli emaslik niqoblangan ko'rinishida ifodalanuvchi tasavvurlar yoki harakatlar yig'indisi. A.Adler ko'rsatishicha anomal va me'yoriy ko'rinishlari keng tarqatdi. To'laqonli emaslik kompleksi bir vaqtning o'zida nafaqat jiddiy muammolar, balki shaxsiy rivojlanishning ichki rag'batlari ham hisoblanadi.

Buzilgan axloq holida to'laqonli emaslik kompleksi teng bo'lmagan xayotiy ko'rsatma va rivojlanmagan ijtimoiy tuyg'u bilan uyg'unlashadi. Anomal shaxsda ustun hayotiy yo'nalish umumiyluk tuyg'usining paydo bo'lishi va rivojlanishiga deyarli to'lik karshilik qiladigan yaqqol ifodalangan ustunlikka erishishga intilish hisoblanadi. Bunday inson odamlarni shaxsiy foydasiga erishish vositasi deb qabul qiladi, jamiyatda dushman kuchini ko'radi, boshqalar bilan hamkorlikni istamaydi va kila olmaydi. Bu konfrontasiya jamiyatning har qanday talablariga qarshi e'tirozning gipertrofik reaksiyasini namoyish qiladi: boshqalarni hurmat qilish, haqiqatni gapirish, o'qish va ishlash, boshqalarning haqligini tan olish, minnatdor bo'lish. Ustunlik g'oyasi bo'ysunish, yerga urish va boshqalarni kamsitish harakatlarini

uyg'otadi. Natijada shaxsning mustah-kam salbiy - chidamsizlik, hasad, o'z fikrini ustun qo'yish, shubhalilik - shaxsning axloqi kabi umuman uning hayotiy yo'lini aniqlaydigan chiziqlari shakllanadi.

2.3.OG'ISHGAN XULQ - O'RGANISH NATIJASI SIFATIDA

Agar psixoanalitik yondashuv ko'proq shaxs rivojlanishining ichki dinamikasini o'rganish sifatida mo'ljallangan ekan, unda bixeviorizmdan kelib chiquvchi nazariya bevosita kuzatilgan axloqni o'rganadi. Bixeviorizm (axloqiy psixologiya) mustakil yo'nalish sifatida XX asrning boshlarida ajralib chiqdi. Uning asosi Torndayk, Dj.Uotson, B. Skinner kabi nomlar bilan bog'lik.

Axloqiy psixologiyaning asosiy nizomlari quyidagicha holatlarda shakllantirilishi mumkin:

Psixologik real (kuzatilayotgan) inson axloqi va uni boshkarishni oldindan aytib berish bilan shug'ullanishi lozim. Har qanday axloqning maqsadi - muhitga moslashish. Axloq-shaxsning bevosita ichki faollik va tashqi xarakatlarda namoyon bo'luvchi individual xususiyatlari, mu-hit bilan o'zaro ta'sir jarayoni. (Dastlab "axloq" tushunchasi ostida faqat tashqi ko'-rinish - dvigitelli, xissiy, vegetativ, nutqlar tushunilardi.)

Ushbu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: rag'bat - oraliq o'zgarishlar - reaksiya. Oraliq o'zgarishlar ostida hozirgi vaqtda reaksiya ortida yashiringan barcha narsalarni tushunish mumkin. Bu - hissiy jarayonlar (ayniqsa xavotir), axloqning ushbu shakli motivatsiyasi (uyg'otuvchi omillar), kognitiv jarayonlar (anglashning xususiyatlar vazifani tushunish va h.k.), o'z-o'zini boshqarish jarayonlari.

Axloq shubhasiz reflekslar va instinktiv dasturli (organizmning bir butun kabi nasliy, shablon reaksiyalari asosida shakllanadi. Inson axloqining shakllanishida asosiy mexanizmlar o'rganish hisoblanadi. O'rganish - yuzaga kelgan vaziyatga reaksiya asosida axloqning muayyan turlarini egallash va saqlanish jarayoni. Istisno, qachonki faollikning o'zgarishi tug'ma reflekslar, yetilish yoki muvaqqat holatlar (charchash, giyohvand; kayfi) bilan bog'liq bo'lgan hollardan iborat.

Bixeviorizm nazariyasi - bu qonunlar yoki inson axloq» tamoyillarining tajribalari asosida ta'riflanuvchi keng qamrovli nazariya.

I.P.Pavlov tomonidan ixtiro qilingan shartlashish axloqiy psixologiyaning birinchi qonunlaridan bo'ldi va axloq qonunchiligining keyingi barcha tadqiqotlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Klassik shartlashish (shartli yoki respondent, refleks) - bu shubhasiz rag'bat bilan (organizmning tug'ma reaksiyasini uyg'otuvchi) vaqt va makonda birlashgan shartli reaksiyani o'rganish (indifferent rag'batga reaksiya). Tansiq totli taom tasviri (shartli rag'bat), shuningdek, tning og'izga tushishi (shubhasiz rag'bat) ham so'lak bezlarni chaqirishi mumkin. Har bir harakat agar u shubhasiz yoki shartli reflekslarga asoslangan hamda taqdirlangan bo'lsa takrorlash tendensiyasiga ega. Takrorlanuvchi harakat odatga aylanadi. Agar harakatlar takrorlanmasa yoki mustahkamlanmasa, ular so'nadi.

Axloqiy psixologiyaning asoschilaridan biri haqli ravishda axloqiy psixologiyaning tamoyillarini, shuningdek, shartlashish qonunlarini rasmiylashtirgan **Dj.B.Uotson** (1878-1958) dir.

Dj. Uotson nazariyasiga muvofik odam ham, hayvon ham nasliy zehn va bilimdan foydalanish vositasida atrofdagi muhitga moslashadi. Reaksiya chaqiruvchi rag'bat, yoxud predmet tashqi yoki ichki muhitda turgan obyektlardan chiqishi mumkin. Shartlashish diapazoni vositasida odamlar reaksiya qiladigan rag'bat yanada kengaymoqda. Hamma reaksiyalarni ochiq va yashirin, egallangan va tug'maga ajratish mumkin. Tug'ma reaksiyalar kam sonli va o'zida go'daklikning birinchi kunlaridan boshlab nima qilishlarini o'z ichiga oladi. Shu jumladan, ularga qon aylanishi va nafas olish, shuningdek, odatlarning shartlilik va shakllari tegishli. Tug'ma reaksiyalar tug'ilgandan keyin tezda shartlangan bo'ladi. Bolalarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, odatda, instinkt deb ataluvchi barcha narsalar ahamiyatli darajada o'rganish yoki shartlilik natijasi hisoblanadi, bunday axloq sifatida inson egallagan axloqning qismi hisoblanadi. Dj. Uotson fikriga ko'ra rag'batga - egallanmagan hissiy javobning faqat uchta turi mavjud: ko'rquv (masalan, bolaning juda baland tovushdan tug'ma ko'rkuvchi), g'azab va muhabbat.

Axloqiy psixologiyaning rivojlanishiga alohida hissa qo'shgan **B.F. Skinner** (1904-1990) inson axloqiga uning oqibatlari muhim ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Shu

bilan bog'liq holda B.Skinner operant shartlashishi mexanizmlarini taklif qildi. Operant axloqda moslashish rag'batga javob beruvchi axloq shaklida emas, insonning shaxsiy ligi yo'li bilan sodir bo'ladi. Masalan, sinov va xatolar natijasida qoniqish yoki noxushliklarni bartaraf etishga olib boruvchi ya'ni o'z-o'zini mustahkamlovchi axloqning anik shaklida muvaffaqiyatga erishish mumkin.

B. Skinner ta'kidlaydiki, reaksiyani oldindan ko'ra olish yoki nazorat qilish mumkin emas, oldindan aytish mumkin bo'lgan yagona narsa - bu uning kelajakda yuzaga kelish ehtimoli. Axloq: ilmining birligi operant - ushbu (o'z) oqibati bilan aniqlangan axloq. Operant axloq - oqibatni keltirib chiqarib atrof-muhitda operasialanadigan axloq.

Agar I.P.Pavlov o'z kuchuklari axloqini kuchaytiruvchi barcha hodisalarni "madad" deb, axloqda bu hodisa sabab bo'lgan o'zgarishlarni esa - "shart qilib qo'yish" (rag'bat bilan mustahkamlanuvchi aloqa) deb nomlagan bo'lsa, unda operant axloq konsepsiyasiga asosan madad javobga bog'lik (rag'batga reaksiya bilan mustahkamlanuvchi aloqa). Klassik sabablar va operant sabablar - shart qilib qo'yishning ikki yagona mumkin bo'lgan turidir.

Garchi atrofni o'rab turgan muhit axloqning shakllanishi va qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynasada, axloqning o'zi oqibatlarni yetishtirib, atrof-muhit keltirib chiqarayotgan oqibatlarga ham bog'liq bo'lib, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadi. Organizm va uni o'rab turgan muhit o'rtasidagi o'zaro harakatning istalgan o'xshash ifodasi ta'rifning uchta elementidan iborat bo'lmog'i zarur:

- a) ushbu reaksiyaga o'rin bo'lgan vaziyatlar;
- b) javobning o'zi;
- v) mustahkamlovchi oqibatlar. Bu uch elementning o'zaro aloqasi tutash madadlar asosida yotadi.

Reaksiya tug'ilishining ehtimoli ijobiydan keyin bo'lgani kabi salbiy madaddan keyin ham o'sib boradi. Ijobiy madad nimanidir (masalan, maqtov, mukofot) taqdim etishni nazarda tutadi. Salbiy madad ushbu vaziyatdan qandaydir noxush narsani yo'qotish (masalan, jazodan qochish) ni nazarda tutadi. Og'ishgan xulqqa taalluqli

spirtli ichimliklar iste'mol qilish, masalan, bir vaktning o'zida qoniqish olish (iliklikni his qilish, totli taomdan lazzatlanish, energiyaning quyilishi, do'stlarning e'tibori, bayram tafti) va muammodan ketish bilan (zo'riqishni olib tashlash, o'ziga ishonchsizlik tuyg'usini kamaytirish, g'amxo'rlik va mas'uliyatdan chalg'ish) mustahkamlanadi.

Umuman olganda axloq ehtimoli quyidagi quvvatda kuchayadi:

- noxushliklarni bartaraf etish;
- e'tiborni jalb etish (B.Skinner fikriga ko'ra bizga etiborli bo'lgan odamlargina bizning axloqimizni mustahkamlaydi);
- affektasiya (kuchli hissiyotlar namoyishi);
- jilmayish yoki ma'qullashning istalgan shakli;
- sevimli faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini takdim etish;
- hokimlikni taqdim etish;
- qoniqish - universal mukofot (shirin taom, jinsiy aloqa va x.k.).

Bu mustahkamlovchi rag'batlarni biz mukofotlash deb atashga odatlanganmiz.

B.Skinner hisoblaydiki, barcha madadlar oxirgi hisobda evolusion tanlovda o'ziga kuchini oladi va muayyan buyumlar yordamida ma'lum bir usullar bilan odamlar uchun xarakterli bo'lgan madadni oladi. Masalan, ozuqaning ijobiy madadi va xavfdan qutulishdagi salbiy madad, ma'lumki, yashash uchun zarur. Axloqning o'z qismigina tezda yaqqol biologik ahamiyatga ega bo'lgan ozuqa, jinsiy aloqa yoki boshqa omillar bilan quvvat oladi. (Bunday madadlar, yuqorida ta'kidlanganidek, mutlaq yoki dastlabki madad deyiladi).

Axloqning katta qismi - bu dastlabki madad bilan assosiasiyalangan yoki u bilan shartlangan madadga reaksiyadir. Masalan, agar bayram vaqtida yoqimli kompaniyada har gal chekishni olsak, bunda kompaniya shartlangan madad beruvchi sabab bo'lib qoladi.

Shartlangan madad bittadan ortiq madad bilan birlashsa generallashadi. Bu dalil katta ahamiyatga ega, chunki rejalashgan shartlangan madad, masalan, pul ko'rinishida, foydali, chunki nafakat deprivasiyaning (masalan, ochlik holati) bitta

aniq holatiga, balki boshqa shunga o'xshash holatlarda ham qo'llaniladi. Albatta, madadning bunday turida reaksiyaning tug'ilish ehtimoli katta bo'ladi. Boshqa generallashtirilgan shartlangan madad e'tibor, ma'qullash va mexr qo'yish hisoblanadi.

B.Skinner "o'rganish" atamasini "operant shartlab qo'yish"ga ekvivalent deb hisoblamagan. "O'rganish" atamasida foydalanish yuqori darajada axloqning shakllanishini nazarda tutadi, ayni damda "operant shartlab qo'yish" atamasini qo'llash teng darajada axloqni ham shakllantirish, ham saqlashni nazarda tutadi.

Shunday qilib, axloq oqibatlariga ega, agar bu oqibatlar yoki yordamchi kuchlar mavjud bo'lmasa axlosning so'nishi sodir bo'ladi. Masalan, agar bolaning qaysarliklariga muntazam e'tibor berilmasa, u kamroq qaysarlik qila boshlaydi. Xuddi shu kabi katta odamlar foydali oqibatlariga ega bo'lmagan axloqqa tortiladi, ular o'zlarini shu tarzda tutishga kamroq moyil bo'la boradilar. Madad berish tartibining so'nishiga munosabati bor. Masalan, davriy madad berish bilan chaqirilgan axloqning so'nishi muntazam madad berilgan rivojlanuvchi axloqning so'nishidan ko'ra birmuncha murakkabroq bo'lishi mumkin.

B.Skinner fikriga ko'ra, psixologiyaniing vazifalarini axloqni uning madadi va so'nishi tarixini hisobga olgan holda tushuntirish kerak. Masalan, muhtoj axloq holatida qanday sharoitda paydo bo'lishi, nima bilan va qanday madad olishi, qanchalik tez namoyon bo'lishi, nima bilan assosiyalanishi va nima bilan birga borishi, har bir aniq holatda nimaga olib kelishi, ushbu axloqqa atrofdagilarning reaksiyasi qanday, ushbu axloq odamga qanday psixologik foyda berishini tushunish kerak. Shu nuqtai nazardan psixoterapiyani so'ngan istalgan axloqni tiklash uchun belgilangan madad tizimi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Axloqni istalgan javobga ketma-ket yaqinlashishning yordamchi kuchi vositasida shakllantirish mumkin. B.Skinner quyidagi misolni keltiradi. Kabutarlar yog'ochli sharni kuch bilan zarb berib va kichkinagina yo'lakcha bo'yicha o'yinchokli bulavlar majmuiga yo'naltirib sayr qilishni o'rgandilar. Tadqiqotchilar va uning hamkasblari kabutardan ozuqa yordamida mustahkamlash mo'ljallangan kerakli reaksiyani kutgandilar, biroq hеч nima ro'y bermadi. Shunda eksperimentatorlar kuchli zarba

bilan kichik bo'lsada o'xshash har qanday reaksiyani mahkamlashga, keyin esa istalgan reaksiyaga ko'prok bo'ladigan reaksiyani tanlashga qaror kildilar. Bu taktika o'ta samarali bo'ldi.

B.Skinner shaxsni tutash jihatlarga tobe madad to'plamiga mos tushuvchi axloq turining repertuari sifatida ko'rib chikdi. Agar an'anaviy nuqtai nazardan axloqning sababli shartlanganlikni karab chiqsak, odamlar shaxsiy hayotlari uchun javobgar avtonom harakatlanuvchi individlar roliga chiqadilar. Ilmiy tasavvurlarga muvofiq odamlar - yashash sharoitining evolyusiyasidan qat'i nazar shakllangan bu tur a'zolari; odamlar axloqi ular yashayotgan atrofdagi muhitning nazorati ostida turadi. Odamlarning dunyoni qabul qilish va anglash usullari atrof-muhitning tutash jihatlari bilan belgilanadi. Ong yoki anglash ham atrofdagi muhit bilan shakllangan ijtimoiy mahsulot hisoblanadi. Shu bilan birga, agar madadning tutash jihatlari ta'sirini inobatga olsa tafakkur deb ataluvchi murakkab faoliyatning mexanizmlarini ham fahmlab olish mumkin.

O'zini nazorat kilishda odamlar o'z axloqlarini boshqarish uchun hodisalarni boshqaradilar. Bu dastavval axloqqa ta'sir ko'rsatuvchi atrofdagi muhitni nazorat silish. Masalan, kattalar ketish reaksiyasini shunday tarzda qo'llashi mumkinki, U o'z g'azabining reaksiyasini boshqarishga qodir bo'ladi. Xuddi shunday, ovqatni ko'rish maydonidan olib qo'yish ham ko'p yeb qo'ymaslik odatidan voz kechishga yordamlashishi mumkin. Boshqa tomondan, ba'zi sabablarning ishtiroki istalgan axloqni ancha ehtimolga yaqin qilishi mumkin.

Masalan, aniq stol o'quv axloqi uchun rag'bat bo'lishi mumkin, dastro'-molga tugilgan tugun esa qoldirilgan harakatni mustahkamlashi mumkin.

Shunday qilib, klassik bixeviorizm vakillari shaxsning it bilan o'zaro harakati jarayoni sifatida insoniy axloqning asosiy tamoyillari va mexanizmlarini taklif qildilar. Ko'rib chiqilgan holatning aspektida og'ishgan xulqni muhitning murakkab sharti natijasi sifatida ta'riflash mumkin.

Og'ishgan xulqni kamaytirish yoki bartaraf etish uchun muhit quyidagi usullarga undaydi. Bu:

- birinchidan, salbiy madad (muhim nimadandir mahrum bo'lish).

- ikkinchidan, bu hissiy-salbiy sabab. Masalan, qo'rquv asosidagi jazo. Odatda, u etarlicha samarali, biroq ba'zi vaziyatlarda jazo boshqa tuyg'ularni uyg'otadi-qiziquvchanlik, tajovuzkor bilan o'xshashlik, sadomazoxistlikdan qoniqish. Shunga o'xshash hollarda jazo istalmagan axloqni mustahkamlaydi va kuchaytiradi. Qator hollarda jazo shartlarini nazorat qilish qiyin. Bunga maxsus sharoitlar kuchi bilan 5-7 yilda shaxs axloqi deyarli qaytarib bo'lmas darajada deformasiyalanadigan tuzatuvchi tashkilotlardir birmuncha yaqqol misol bo'la oladi.

Bundan tashqari, jazoning samaradorligi kator sharoitlarga bog'liq: u istalmagan axloqdan keyin darhol qo'llanmog'i lozim, harakatga praporsional bo'lishi, individual ahamiyatli; va imkoni boricha guvohlarsiz amalga oshirilishi darkor. Ko'pchilik tadqiqotchilar jazo har doim ham istalmagan axloqni ogohlantirmasligini tan oladilar.

Axloqni so'ndirishning uchinchi usuli - reaksiyani operant so'ndirish, qachonki u shunchaki inkor qilinadi yoki odam avvalgi axloqi mumkin bo'lmagan boshqa muhitga o'tadi. Ushbu usul bilan reaksiyani so'ndirish salbiy madad yoki jazoga qaraganda ancha samaradorligi isbotlangan.

Axloqiy yondashuvning zamonaviy vakillaridan biri - **D.Volpe** (1915-1997)- o'xshash ko'rinishlarni-hamkor, tormozlanish mexanizmlarini maxsus o'rgandi. Jarayonlardan kaytishga yordamlashuvchilarni tadqiq qilib, D.Volpe angladiki, agar yangi odatlar o'sha vaziyatning o'zida rivojlanish imkoniyatini taqdim etsa, eski odatlar so'nadi. Qachonki muayyan salbiy reaksiya bilan birga bo'la olmaydigan (masalan, xavotirli) ijobiy reaksiya (masalan, relaksasiya) uning keyingi zaiflashuviga yordamlashib, ushbu shartli reaksiyani tormozlaganda resiprokli tormozlanishning o'rni bor. Modomiki, xavotir etarlicha tez muammoli axloq bilan uyg'unlashadi, mutaxassisning vazifasi - xavotirga unosabat bo'yicha reaksiya shu xavotirni chaqiruvchi rag'batlar ishtiroki vaqtida antagonistik shakllantirishdir.

D.Volpe odamlar axloqini o'zgartirishi mumkin bo'lgan xavotir bilan birga bo'lolmaydigan reaksiyalarni sanab o'tdi:

-assertiv reaksiyalar (boshqa odamga nisbatan xissiyotlarni ochiq maqbul ifodasi);

- jinsiy reaksiyalar;

- relaksasiya reaksiyalari;

-nafas olish reaksiyalari;

-"xavotirdan yengillashish" reaksiyasi;

-musobaqaviy shartlangan motorli reaksiyalar;

-turlicha hayotiy vaziyatlarda (masalan, dorilar ta'sirida) yuzaga kelgan yoqimli reaksiyalar;

-suhbat davomida uyg'ongan hissiy reaksiyalar;

- nizoli vaziyatlarni og'zaki yoki rolly o'ynash.

Axloqiy psixologiyaning boshqalardan kamroq mashhur vakili **G.Yu.Ayzenk** (1916-1997) - Dj.Uotson va B.Skinnerning qonunlari barcha axloqiy fenomenlarni yoritmasligiga e'tibor qaratdi. Masalan, hodisalar qatorida xavotir va uni chaqiruvchi rag'batni taqdim etganda garchi bunda hech qanday madad oqibatlari bo'lmasa-da, shartli reaksiya sifatida kuchayadi. Bundan tashqari, G.Ayzenk yaqqol salbiy oqibatga ega bo'lgan asabiy axloq sog'lom fikrga qarshi bartaraf etilmaydi, deb hisoblaydi. Shu bilan bog'liq xavotir reaksiyasining inkubasiyasi nazariyasi (kuchayishi) ni ishlab chiqib, G. Ayzenk ba'zi shartli reflekslar (dastavval xavotir) ichki impuls (o'z-o'ziga quvvat berish) xislatlariga ega, faqat bitta rag'bat (madadsiz) ta'sirining sharofati bilan mutlaq refleksga o'xshash (maxsus madadni talab qilmaydigan) xavotirning shartli refleksi indusiyalanashini taxmin qildi. Shunday qilib, kurquvning shartli reaksiyasi nafaqat so'nishga qarshilik qiladi, balki shartli rag'bat (go'yoki o'z-o'zidan) har taqdim etilganida ijobiy qaytma aloqasini paydo qilganicha kuchayadi.

G. Ayzenk odamlarda ko'rquvning asabiy reaksiyalarini to'rtta manbaini ajratdi:

1) tug'ma shart-sharoit (qo'rquv individning obyekt bilan birinchi to'qnashuvida yuzaga keladi);

2) «tayyorgarlik» - odamlarda qoʻrquvning shartlangan yengil reaksiyasi (odamlar baʼzi qoʻrquvlarga oʻta oson oʻrganadilar ragʻbat bilan birinchi toʻqnashuvdayoq sarosimaga tushadilar);

3) imitatsiya - qoʻrquvga taqlid qilish orqali oʻrganish mumkin;

4) klassik shartlab koʻyish (shu bilan birga, koʻrquv reaksiyasini tugʻdiruvchi asosiy shaksiz ragʻbat ogʻriq emas, baland tovush, koʻmakni yoʻqotish, jismoniy cheklash emas, balki frustatsiya yoki taqdirlashning frustatsiyalovchisi yoʻqligi).

L.Bandura ishlab chiqqan ijtimoiy-kognitiv nazariya yoki ijtimoiy oʻrganish nazariyasi oʻrganishning klassik nazariyasini mahsuldor rivojlanishini aks ettiradi. Ijtimoiy oʻrganish nazariyasiga muvofiq faqat inson imkoniyatlarining elementar reflekslari va chegaralari tugʻma hisoblanadi. Insonning har qanday axloqi modomiki uning ortida maxsus oʻrganishni talab qiluvchi murakkab malakalar turarkan ijtimoiy shart qilib qoʻyishgan. Masalan, tajovuzkor axloq shakllanishi uchun qator shartlarni bajarish zarur. Harakatni oʻzlashtirish usullari ishtirok etishi lozim, qoʻzgʻatuvchi boʻlmogʻi zarur, harakatlarni mustahkamlovchi sharoitlar boʻlishi kerak. Boshqacha aytganda, tajovuzkor axloqni oʻrganadilar, chunki tajovuzkor ogʻriq yetkazayotganini, buni qanday va qay sharoitda qilishni bilishi zarur. Psixofiziologik taʼsir, shu jumladan, nasliy mexanizmlarga oʻrin bor, biroq hal qiluvchi rol oʻynamaydi.

Ijtimoiy-kognitiv nazariyaga muvofiq insonning ragʻbatga reaksiyasi kognitiv jarayonlar bilan bevosita bogʻlashan.

A. Bandura insonni xarakterlovchi beshta asosiy kognitiv qobiliyatni ajratdi: rejalashtirish (sensor tajriba chegaralaridan chiquvchi ramzlar va obrazlar yaratish); oldindan koʻra bilish (koʻpchilik hollarda odamlar oʻz axloqlarining oqibatini oldindan koʻra biladilar, maqsad qoʻyadilar, shunchaki atrofdagi muhitga reaksiya qoʻymaydilar); modellar bilan oilvositalik (odamlar koʻprok bevosita ishtirok etmay, boshqa odamtarni kuzatish orqali oʻrganadilar); oʻz-oʻzini boshqarish (shaxsiy axloqni baholash va korreksiyalash uchun ichki standartlarning mavjudligi); oʻz-oʻzini tahlil qilish (oʻz tajribasi va hayoliy jarayonlarini refleksiv baholash).

Insoniy axloqning faol xarakterini ta'kidlab, A.Bandura insoniy agentlik tushunchasini kiritdi. Insoniy agentlik -shaxsiy hayoliy jarayonlar, motivatsiyalar va harakatlar ustidan nazorat orqali o'z-o'zini boshqarishni amalga oshirishga layoqatidir. Inson axloqi (V), kognitiv va shaxsiy omillar (R) va o'rab turgan muhit ta'siri (Ye) o'zaro determinatsiyalangan (triadik o'zaro determinizm). So'nggi hisobda axloq - bu tashqi hodisalar va ichki shaxsiy determinantning o'zaro murakkab harakati natijasi: nasliy xususiyatlar, egallangan malakalar, refleksiv tafakkur va o'z tashabbuslari.

Ijtimoiy o'rganish nazariyasiga muvofiq axloq shakllanishining asosiy mexanizmlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Kuzatish orqali o'rganish (vikar o'rganish) yetakchi usul hisoblanadi. Odamlar axloq va kognitiv malakalarga ko'pincha modellar (boshqa odamlar) ni kuzatib o'rganadilar. Banduraning fikriga ko'ra, vikar o'rganish hatto samarador-roq, chunki u xavfsizdir. Nafaqat hayot sahnasidan kuzatish mumkin, balki ularning badiiy-ramziy tasvirlari, masalan, adabiyotlar, kino orqali kuzatish mumkin. Kuzatuvchi namoyon etiladigan axloqni namuna sifatida qabul qiladi, agar: u tashqi foyda keltirsa; u tomonidan ichki ijobiy baholansa; modelga foyda olib kelsa - uni kuzatish mumkin. Bunda verbal va noverbal modellashning uyg'unlashuvi samaralidir. Masalan, filmning salbiy qahramoni obrazi yukumli bo'ladi, agar aktyor (personaj) mehr qozonsa va idealga yaqin bo'lsa yoki agar salbiy harakatlar yordamida jazosiz qolib hukmronlik qilsa, pul, lazzatga erishsa...

Kuzatuv orqali o'rganish doim ham tashqi mukofotni talab qilmaydi, chunki kuzatuvchining kognitiv jarayonlari bilan o'rtalashadi va "taqdirlanadi" (masalan, uning sodir etilayotganlarni baholashi, uning shunga o'xshash axloq oqibatlari haqidagi tasavvurlari).

2. Harakatda o'rganish yoki tajriba orqali o'rganish nihoyatda keng tarqalgan. Bilim va malaka o'rtasida tafovut mavjud. Malaka (harakat) lar maqsadli tuzilmalar bilan bogliq. Harakat sodir eta turib, odamlar ularning oqibatlarini his qiladilar (operant shart qilib ko'yish). Shuning uchun axloqqa odamning oqibatni kanday

qabul qilishi ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar reaksiya oqibatlari yuqori baholansa, bu shunday axloqni sodir etish ehtimolini ko'taradi, ya'ni uni kuchaytiradi. Shunday qilib, mexanistik tasavvurga qarama-qarshi o'laroq oqibatlar axloqni o'z o'zicha emas, balki fikrlar orqali belgilaydi. A.Bandura fikriga ko'ra, "madad" atamasi chalkashlikka olib keladi, chunki reaksiyalarni avtomatik tarzda ko'rsatish va kuchaytirishni ko'zda tutadi. Ayni vaqtda samarali ishlash uchun odamlar hodisalarni oldindan ko'ra olishlari va turlicha harakatlarning ehtimoliy natijalarini baholashlari ham talab qilinadi

A.Bandura uchta boshqaruvchi motivasion tizimlarni ajratadi - bu tashqi, bevosita va o'z-o'zini produsiyalovchi natijalarga asoslangan tizimlar hisoblanadi. Tashqi motivatorlar - bu inson harakatlarini kelgusida kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi tashqi oqibatlaridir. U jismoniy deprivatsiya va og'riqni; moddiy ragbatni (masalan, ovqat); sensor ragbatlar (yoqimli yoqimsiz hissiyotlar)ni; ijtimoiy rag'batlar (ma'qullash, ma'qul-lamaslik)ni; ramziy rag'batlar (pul, baho, unvon)ni; faoliyat rag'bati (shu jumladan, ijodkorlik)ni; mavqye va hukmronlik rag'batlarini o'z ichiga oladi.

Bevosita motivatorlar (bilvositalik motivatorlari) boshqa odamlarning reaksiyalari oqibatlarini kuzatish natijasida olingan bilimlardir. Boshqa odamlarning axloqini qanday taqdirlayotganlarini kuzatish kuzatuvchilarning ham o'zlarini shunga o'xshash tarzda tutishlari ehtimolini oshiradi. Shuni ta'kidlash zarurki, istalmagan axloqni tutib qolishning ancha samarali usuli axloqning ijobiy alternativ shakliga o'rgatish hisoblanadi. Umuman olganda, boshqa odamlarning axloqini kuzatish axborot beradi, hissiyot uyg'otadi, shaxsiy standartlar va bahoga ta'sir ko'rsatadi.

Ichki motivatorlar (o'z-o'zini boshkarish motivatorlari) ayniqsa muhim, chunki insoniy axloq asosan vositasiz taqdirda amalga oshiriladi. Axloqning ichki standartlari ichki rag'bat sifatida harakatlanishi mumkin. Axloqning o'z-o'zini boshkarishi o'z ichiga uchta jarayon ostini oladi: o'z-o'zini kuzatish (o'z axloqi to'g'risidagi axborotni olish), baholovchi jarayon (shaxsiy standartlar nuqtai

nazaridan o'z axloqining ijobiy yoki salbiyligini baholash) va o'z-o'zini boshqarish (o'z axloqiga ta'sir).

Muvaffakiyatli axloq uchun shaxsiy samaradorlik kontsepsiyasi - ijroning (o'zining samaradorligiga ishonch) muayyan darajasiga erishish imkoniyatlari haqidagi shaxs muhokamalari o'ta muhim. Samaradorlik kontsepsiyasi quyidagilarning natijasi hisoblanadi: yutuqlarning shaxsiy tajribasi; tajriba (boshqalarning omad-omadsizligini kuzatish); verbal ishonch (ko'ndirish); fiziologik va hissiy holat (xissiy qo'zg'alish, kayfiyat, charchoq, og'riq, qayg'u). Dastlab odamlar o'zlarini muvozanatning buzilishini, keyin esa bu darajaga erishishga intilishni chaqiradigan standartlarni o'rnatish yoki ijro darajasi orqali motivatsiyalaydilar. Shaxs o'z oldiga ko'yadigan maqsadlarni amalga oshirishda o'z-o'zini qoniqtiruvchi tamoyil bo'yicha harakatlanadigan ichki motivatorlar sifatida harakatlanadi. Ayniqsa, sekin-asta murakkablashib boruvchi qisqa muddatli oraliq maqsadlarni qo'yish foydali.

O'rganish nazariyasiga bixeviorizm tuprog'ida o'sgan kognitiv yo'nalish zich yondosh turadi. Noo'xshash kognisiyalar noo'xshash tuyg'ular va harakat-larni uloqtiradi. Odamlarning stressli vaziyatlarni qanday izohdashlari ularning axloqini belgilaydi. Masalan, ruhiy azoblanish holatida "me'yordagi" qayg'u total yo'qotish va barbod o'lishning butun qamrab oluvchi tuyg'usida transformasiyalanadi. Bu holda axloq darajasida ketib qolishning moslashmagan reaksiyasi, faollikdan voz kechish yuzaga keladi. Boshka vaziyat o'ta xavf soluvchi bo'lib qabul kilinishi mumkin, bu, o'z navbatida, xavotir va g'azabni, keyin esa tajovuzkorlik yoki qochishni qo'zg'atadi. Shunday qilib, axborotni qayta ishlashda noo'xshashlik, shuningdek, hayotiy vaziyatlar tuzilmasidagi omadsizliklar axloqiy xafagarchilikning alohida sabablari sifatida chiqishi mumkin .

Yuqorida ta'kidlanganidek, shaxsning og'ishgan xulqi stressga chidamlilik kabi individual xususiyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Hozirgi vaktida kognitiv-axloqiy yondashuv doirasida ekstremal yoki stressli vaziyatlarda inson axloqi faol o'rganiladi. Shu bilan bog'liq holda koping-axloq o'rganiladi. Koping so'zi ostida

stressli hodisadan keyingi vositasi bilan moslashish jarayoni nazarda tutiladi. Atamadan birinchi bo'lib L.Merfi 1962 yili yosh krizisi bilan bog'lik bolalar qiyinchiligini yengish usullarining tadqiqotida foydalandi. Hozir koping ijtimoiy moslashuvning muhim jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. Moslashish uchta komponent bilan belgilanadi:

1) organizmning tashqi ta'sirga babbarobar reaksiya qilish qobiliyati va ko'nikmasi;

2) motivatsiya atrofida muhit sharoitlariga moslashish istagi;

3) psixik muvozanatni qo'llab-quvvatlash layoqati. Koping-axloq stressli vaziyatlarni bartaraf etishning ongli strategiyasi sifatida tushuniladi (psixologik himoyaning ongsiz mexanizmlari bilan mavjud bo'ladigan).

R.Lazarusning modeliga, shuningdek, tadqiq qilinayotgan koping-axloqqa muvofiq muhit va shaxsning o'zaro harakati ikkita jarayon bilan boshqariladi: kognitiv baholash va koping bilan. Kognitiv baholashning ikki turi ajratiladi - birlamchi va ikkilamchi. Birlamchi baholash qabul qilingan xavf, stressor xislati, individning psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Uning natijasi xavf soluvchi yoki o'zgarish vaziyati sifatida baholash haqidagi xulosa xisoblanadi. Ikkilamchi baholash tanqidan birlamchini to'ldiradi va biz salbiy hodisalarga qanday ta'sir ko'rsatishimiz mumkinligini va stressni bartaraf etishning resurslari qandayligini aniqlaydi. Vaziyatni kognitiv baholashdan keyin individ moslashish maqsadida stressni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chikishga kirishadi. Xayoliy ishlovdan keyin shaxsan koping - stressni egallash jarayoni keladi.

Koping yaxlit mexanizm hisoblanadi. Tadqiqot maqsadlarida uning kognitiv, hissiy, axloqiy aspekti hakida gapirish maqsadga muvofiq. Koping shaxsning aniq vaziyatda moslashishiga, axloqning samaradorligiga yordamlashishi ham, yordamlashmasligi ham mumkin. Shunday qilib, koping-axloq yegiluvchan va passiv, mahsuldor va bemahsul bo'lishi mumkin.

Koping-strategiya bilan bir qatorda (egallash bo'yicha harakatlar bilan) shaxsning koping-resurslari ajrattadi - stressni bartaraf etishga qodir sharoitlar

yig'indisi. Koping-resurslarning kuyidagi turlari ajratiladi: jismoniy (sog'lik, bardoshlilik); ijtimoiy (individual ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy-ko'maklashuvchi tizimlar); psixologik (ishonch, mustakam o'z-o'zini baholash, xushmuomalalik, aql, axloq, hazil) va moddiy resurslar (pul, jihozlar).

Koping tushunchasi stress manbai sifatida og'ir kasallik bilan bog'lik bo'lgan krizisli vaziyatlar namunasida ishlab chiqildi. Ye.Xeym onkologik kasallarda coping-jarayonlarni o'rganib chiqib, turli xolis tushunchalar tizimida tadqiqotchilar tomonidan ifodalangan sheriklikning shakllarini ko'chirishga urinishni boshladi va coping-axloqning 26 shaklini ajratdi.

Koping-axloqning moslashuv variantlari muammoli tahlil qilish, shaxsiy qadriyatlarga ko'rsatma, o'z-o'zini egallashni saqlash kabi kognitiv elementlardan iborat. Axloqning ushbu shakllari yuzaga kelgan qiyinchiliklarni va ulardan chiqishning ehtimoliy yo'llarini, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazoratni ko'tarish, og'ir vaziyatlarni bartaraf etishda shaxsiy resurslarning mavjudligiga ishonch, shaxs sifatida shaxsiy qadriyatlarni ancha chuqur anglashni tahlil qilishga iunaltirilgan. Samarali hissiy strategiyalar orasida e'tiroz, optimizm - og'irliklar hamda har qanday, hatto eng murakkab vaziyatdan ham chiqishning mavjudligiga ishonchga munosabat bo'yicha faol e'tiroz va isyonning hissiy holatini aytish mumkin. Muvaffaqiyatli axloqiy coping-strategiyalar-hamkorlik, murojaat, altruizm. Bu shaxs axloqining shunday shakllariki, u ahamiyatli odamlar bilan hamkorlikda chiqadigan, ko'makni yaqin ijtimoiy muhitidan izlaydi yoki uni kiyinchiliklarni bartaraf etishda yaqinlariga taklif qiladi.

Hayot shuni ko'rsatdiki, odamlar og'ishgan xulq xolatida juda ko'p coping-axloqning kam moslashgan variantiga kochib boradilar. Kam mahsuldor kognitiv strategiyalar orasida -itoatlilik, parishonlik, dissimi-lyasiya, inkor qilish - o'z kuchi va intellektual resurslariga ishonmaslikdan yoki noxushlikni etarlicha baholay olmaslikdan qiyinchiliklarni bartaraf etishdan voz kechish bilan axloqning passiv shakli. Kam mahsuldor hissiy coping-strategiyalar orasida - hissiyotni bostirish, itoatkorlik, o'z-o'zini ayblash, tajovuzkorlik-bostirilgan hissiy holat bilan,

umidsizlik, itoatkorlik va boshka tuyg'ularni yo'latmaslik, o'zi va boshqalarga ayb qo'yish bilan xarakterlanadi. Kam mahsuldor axloqiy strategiyalar orasida faol qochish, chekinish - passivlikni ko'zda tutuvchi axloq, yakkalanish, ajralish, muammoning yechimidan qochishni aytid o'tish mumkin.

Koping-axloqning nisbatan moslashgan variantlariga ham o'rin bor, bartaraf etish vaziyatining ahamiyati va ifodalanganligiga bog'liq konstruktivlik. Kognitiv strategiyalar orasida ularga quyidagilar taalluqli: nisbiylik, mazmunni berish, dindorlik - boshqalar bilan taqkoslaganda qiyinchiliklarni baholashga yo'naltirilgan axloq shakllari, ularni bartaraf etishga alohida mazmun berish, shuningdek, Xudoga ishonish. Hissiy coping-strategiyalar orasida - hissiy razryadka, passiv kooperatsiya - yoxud zo'riqishni chiqarish, yoxud qiyinchiliklarni hal qilish bo'yicha mas'uliyatni boshqa odamlarga berishga yo'naltirilgan axloq. Axloqiy strategiyalar orasida - kompensasiya, chalg'ish, konstruktiv faollik – muammoni yechimidan vaqtincha ketishga intilishni, masalan, spirtli ichimlik, dori vositalari, sevimli ishga sho'ngish, sayohat, o'zining mukaddas istak-larini ijro qilish bilan xarakterlanadi.

Stress-ko'pchilik odamlar uchun odatiy ko'rinish. Hayot davomida har bir inson uchun odatiy copingstrasiya shakllanadi. Garchi har bir odamning axloqi turlicha strategiyalardan iborat bo'lsada, zamonaviy ma'lumotlar "sog'lom" odamlar ko'pincha ishonchli tarzda coping-axloqning hiyla mos-lashgan shakliga qochib boradilar va nokonstruktiv shakllardan kam foydalanishlari haqida gapirishga imkon beradi. Muammoli axloqi bo'lgan shaxs, masalan, tobe, kam mahsuldor strategiyaga moyil bo'lsa, muammo va kiyinchilikdan ketish, rad etish va yolg'izlikka intiladi.

1960-yillarda kibernetika va tizimlar nazariyasining rivojlanishi psixologiyada to'yimli maslahat berish va tizimli oilaviy psixoterapiya kabi yo'nalishni tugdirdi. Shaxs ushbu yondashuv doirasida kandaydir ijtimoiy tizim elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Masalan, inson axloqiga uning oilasi ta'sir ko'rsatadi. Chunki u oilaviy tizimga kirgan. Tizimli oilaviy tavsifnomalar quyidagilardir: iyerarxiya, chegaralar, tizimosti, qoida, kommunikasiya usullari va h.k. Oilaviy tizim ichki va tashqi o'zgarishlarga tez va epchil moslashadi. Oilalar uyg'unlashgan va disfunksional

bo'lishi mumkin. Disfunktsional oila stressorlarga bas kelolmaydi va o'zining har bir a'zosini shaxsiy o'sishi uchun sharoitni ta'minlamaydi. Oilaviy tizimda o'zgarishlarni talab qiluvchi istalgan hodisa stressor hisoblanadi. Bu, masalan, bolaning tug'ilishi, kasbni o'zgartirish, oilaning ko'chishi, bolaning o'smir yoshiga yetishi, bolalarning uydan ketishi.

Oilaviy terapiya nukta nazaridan oilaviy jarayonning har bir ishti-rokchisi muayyan rol o'ynaydi, tizim esa umuman olganda mustahkam muvoza-natni qo'llab-quvvatlashga intiladi. Og'ishgan xulq-oilaviy notinchlik simptomidir. Umuman olganda, simptom oilani parchalanishdan olib qolishga va odatiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Masalan, o'smir-ning giyohvand moddaga bog'lanib qolishi ota-onalarni ajralib ketishdan saqlaydi, chunki ushbu holatda ota-onalar real xavf bilan kurashish uchun birlashadilar.

Simptomni tashuvchi identifikasiyalangan pasiyent sifatida belgilanadi. Simptomatik axloq quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- u oilaning barcha a'zolariga kuchli ta'sir ko'rsatadi;
- simptom ixtiyoriy emas va uni tashuvchi tomonidan nazorat ta'siriga berilmaydi;
- simptom oila a'zolari tomonidan mustahkamlanadi va qullab-quvvatlanadi;
- simptomatik axloq oilaviy jarayon ishtirokchilariga psixologik foyda beradi.

S.A.Kulakovning ko'rsatishicha, ko'pincha simptomatik axloqning sabablari quyidagi holatlarda chiqadi:

- oila a'zolari oilaviy muammoni inkor qiladilar va simptom uchun mas'uliyatni bo'lishmaydilar;
- yopiq tashqi chegaralar muammoni oilaviy tizimning me'yoriy rivojlanishini blokirovkalab, yechish uchun tashqaridan chora izlashga imkon bermaydi;
- oilaning barcha a'zolarida oilaviy tizimosti orasidagi chegara yuvilgan (er-xotinlar, ularning ota-onalari, va h.k.), biroq, ayniqsa, "o'xshash pasiyentlar"da surunkali himoyasizlik jarayonini rag'batlantiradi;

- stereotipli "qotib qolgan" rolli o'zaro ta'sirlar; oilada tuyg'ularni ochiq ifodalash muammolari (simptom bilan yaratilgan krizis ko'pincha hissiyotni his qilishning yagona usuli hisoblanadi).

Agar oila o'z-o'zini boshqaruvchi tizim, simptomatik axloq esa uni boshqaruvchi mexanizm sifatida ko'rib chiqilsa, unda simptomni bartaraf etish holida barcha tizim vaqtincha boshqarilmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun nafakat simptom tashuvchi, balki barcha oila ongsiz ravishda ijobiy o'zgarishga, jumladan, og'ishgan xulqni quvvatlagancha qarshilik ko'rsatadi.

X U L O S A

Psixologik konsepsiyani tahlil qilish sharofati bilan biz yana bir bor amin bo'ldikka, biz o'rganayotgan reallik-shaxsning og'ishgan xulqi naqadar murakkab va ko'p obrazlidir. Og'ishgan xulq ruhiy muammolarning oqibati bo'lishi mumkin, shuningdek, u ichki shaxsiy nizolar va noteng psixologik himoyalar bilan bog'liq bo'lishi, oilaviy disfunktsiyaning natijasi bo'lishi mumkin va nihoyat, istalmagan axloq shunchaki odat - bir necha bor takror-langan va tashqi yoki ichki foyda bilan taqdirlangan harakatlardir. Bu nimadir bitta yoki birdan ko'p bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilgan psixologik omillar va deviant axloq mexanizmlarini aniqlashtirib, biz uning psixologik tarkibini tizimlashtirishga urinishimiz mumkin.

Og'ishgan xulq quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ruhiy muammolar - hayot mazmunining yo'qligi yoki uni yo'qotish, shakllanmagan ma'naviy qadriyatlar, reduksiyalangan oliy tuyg'ular (vijdon, mas'uliyat, to'g'riso'zlik), ichki bo'shliq, o'z-o'zini ro'yobga chiqarishni blokirovka qilish;

- kadriyatli-motivasion tizimdagi deformasiya-deviant qadriyatlar, oppozitsion ko'rsatmalar, odamlarga dushmanlik munosabati, vaziyatli-egotsentrik oriyentasiya, ehtiyojlar frustatsiyasi, ichki nizolar;

- hissiy muammolar-xavotir, ruhiy azoblanish holati, salbiy kechin-malar (xafalik, nafrat, ayb), hissiyotlarni tushunish va ifodalash qiyin-chiligi;

- o'z-o'zini boshqarish muammolari - maqsad qo'yish va ularni bajarishga erishish qobiliyatining buzilishi; noteng o'z-o'zini baholash; yoki etarli bo'lmagan o'z-o'zini nazorat qilish past refleksiya, stressni egallashning nokonstruktiv strategiyalari, psixologik himoyaning kam mahsuldor mexanizmlari, past moslashmagan imkoniyatlar, shaxs ijobiy resurslarining tankisligi;

- kognitiv xatolik - disfunktional xayollar, tafakkur stereotiplari, cheklangan bilimlar, miflar, bid'atlar, noteng ko'rsatmalar;

-salbiy hayotiy tajriba - salbiy odatlar; hayotning deviant obrazi; zo'ravonlik tajribasi (jabrlanuvchi sifatida bo'lganiday tajovuzkor rolida ham); jarohatli hayotiy vaziyatlar, individual chidamlilik bo'sag'asini ko'taruvchi: stress, frustatsiya, krizis, nizo.

Og'ishgan xulq holatida, qoidadagiday, sanab o'tilgan bir necha psixologik muammolarning o'rnini bor. Bir masala oxirigacha aniq bo'lmay qolmoqda - shaxsning ko'rib chiqilgan xususiyatlari qachon va nima uchun axloqiy buzilishni chaqiruvchi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan bo'sag'a'dan oshadi? Haqqoniylik uchun ta'kidlash kerakki, u yoki bu darajadagi psixologik kiiinchiliklar har bir odamga xos (masalan, o'ziga ishonmaslik). Biroq muayyan sabablar kuchida (masalan, shaxsiy ramzlar tizimi) bir holda shaxsiy muammolar odamni ijobiy faollikka rag'batlantiradi (ijodkorlik, odamlarga xizmat qilish, yutuqlar), boshqa holda og'ishgan xulqni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, yig'ilgan klinik va eksperimental ma'lumotlar deviant harakatlar va qandaydir aniq omillar, mexanizmlar orasidagi chiziqli bog'liqlik mavjud emasligini taxmin qilishga imkon beradi. Shaxsning og'ishgan xulqqa ijtimoiy axloqning o'zaro bogliq omishlari - shart va psixologik sabablari determinasiyalangan tizimning murakkab shaklini o'zida aks ettiradi.

Muhtoj axloqning ajratilgan omillarini tahlil qilish uchun ishchi sxemasi ko'rinishida taqdim etish mumkin. Ushbu sxema bir vaqtning o'zida shaxs muammoli axloqining ham sababi, ham stabilizatori bo'lib chiqishi mumkin bo'lgan birmuncha zaif tomonlarini o'z vaqtida anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir.- T.: O'zbekiston, 2005.
2. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. T. 8. T. : "O'zbekiston", 2000.
3. Karimov I.A. Oila farovonligi, millat farovonligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining besh yilligiga bag'ishlangan majlisidagi tabrik so'zi. Xalq so'zi, 1997 yil 5 dekabr
4. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2000 yil. 3-b.
5. A.Avloniy. Turkiy guliston – yoxud axloq. – Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1967 yil, 27-bet
6. Abduraxmonov F. Davletshin «Odamlar Bilan kanday mulokotga kirishish va yoshdashish kerak» 1996 y. Toshkent.
7. Adizova «Ukituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari».
8. Adizova Sh. Usmanova A. «Psixologicheskoye trudnosti v obuchenii mladshix shkolnikov» 1995 y. Toshkent.
9. Anastazi.A. Psixologicheskoye testirovaniye: V 2 KN.Per,s.anu: Pod.red. K.M.Gurevicha,V.I.Lubovskogo.-M.:Pedagogika, 2012.
- 10.Barotov Sh.Tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi.Toshkent.2010y
- 11.Blaxer.V.M.Klinicheskaya...patopsixologiya,T.,Med.,1976g.326.b
- 12.BleyxerV.M.,BurlachukL.F.,Psixologicheskaya dignostika intellekta i lichnosti, - K, Vrshaya shk.,1978,142.b.
- 13.Burlachuk L.F., Psixologiya lichnosti,-K Zdorovya,1989,1686.
- 14.Gurevich K.M. «Psixologicheskaya diagnostika. Problemo' issledovaniya» 2010 y. Moskva «Pedagog».
- 15.Davletshin M.G. taxriri ostida «Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya» 2006 y. Toshkent.

- 16.Davletshin M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uning bartaraf etish yo'llari.
O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari.- T., 1993.-33-34 s
- 17.Diagnostika psixicheskogo razvitiya:Per. s cheshek Praga: Avisenum, 1978.
- 18.Lorens K. Agressiya. Moskva – 2012.
- 19.Mayers D. Sosialnaya psixologiya. Sankt-peterburg. 2000.
- 20.Mametov K.K.. Akli zayf bolalar psixologiyasi. 2011 y.
- 21.Mametov K.K. Maxsus psixologiya. (Tiflopsixologiya) 2009 y.
- 22.Mametov K.K.Maxsus psixologiya. (Surdopsixologiya) 2011 y.
- 23.Mamedov K.K.,Shoumarov G'.B. "Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar
xaqida" T.2012 yil
- 24.Snikovskaya A.S. «Profilaktika detskix nevrozov» 1988 y. Moskva.
- 25.Tolsto'x A.V. «Moralno-esteticheskiye problemy psixologicheskoy praktiki»
1988 y. Moskva.
- 26.SyuzenN.V. Ponomov V.«Psixotrening» 2010 y. Moskva.
- 27.Shoumarov G'.B. 1001 savolga psixologning 1001 javobi.-T. Mexnat.,2001.-.
- 28.G'oziyev E.G'.O'smirlar to'g'risida umumiy tushuncha. Psixologiya. -T
O'qituvchi. - 1994. .133-137 betlar
- 29.Shoumarov G'.B.. O'smirlarning yosh-psixologik xususiyatlari. Oila psixo-
logiyasi. -T : Sharq. - 2001 - 40-61-betlar
- 30.Yadgarova G, O.Avlayev. "Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash metodikasi".
2007 y.
31. Karimova V.K.Deviant xulq-atvor voyaga yetmagan farzandlarimizni undan
asraylik. Ma'rifat №38 (8583) 2013y.11-may.
1. www.famili.info
2. www.igisp.ru
3. www.clever-psycenter.ru
4. www.psdict.ru
5. www.ruzov.ru
6. www.semya.potrebitel.ru

I L O V A

ISHIMIZNING IZOHLI LUG'ATI

Agressiya- Kimgadir zarar yetkazish uchun yo'naltirilgan jismoniy yoki verbal xulq. Agressiyaning bunday sotsial-psixologik ta'rifi bo'yicha odam agressiv bo'lmagan holda qaysar, shiddatli bo'lishi mumkin.

Axloq -tirik mavjudotga xos bo'lgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirdir.

Affektatsiya-kuchli hissiyotlar namoyishi

Autodestruktiv -o'z-o'zini parchalovchi axloq

Asotsial axloq - bu shaxslararo munosabatlarning tinchligiga bevosita xavf soluvchi, axloqiy-ma'naviy me'yorlarni bajarishdan qochuvchi axloq.

Antijamoiy (delinkvent) axloq - bu qonun me'yorlariga qarshi chiquvchi, ijtimoiy tartib va atrofdagi odamlar farovonligiga xavf soluvchi axloq. U qonunchilik bilan taqiqlangan istalgan harakat yoki harakasizlikni o'z ichiga oladi

Autistik -odamlar va atrofdagi harakatlardan bevosita chegaralanganlik, shaxsiy fantaziyasi olamiga sho'ng'iganlikda ko'zga tashlanadi destruktiv axloqning barcha sanab o'tilgan shakllari

Autik axloq, viktin axloq -jabrlanuvchining axloqi.

Agrammatizm- grekcha a-inkor kilish, bulaklarga ajratilmaydigan suzdan. Tilning grammatik kurilishini uzlashtira olmasak, grammatik formaning axamiyatini tushunmaslik, gap tuza olmaslik natijasida yuzaga keladigan nutk tuzilishi.

Apraksiya –odat belgan xarakatlarning buzilishiga apraksiya deyiladi. Apraksiyaga uchragan bemor hych qanday hatto eng oddiy xarakatlarni ham o'zgalarning yordamisiz bajarolmaydi.

Afaziya-grekcha a inkor etish, phasis-nutq so'zlaridan)-bosh miyaning lokal jarohatlanishi natijasida ro'y beradigan nutqning to'la yoki qisman yo'qolishi

Asoslanganlik - shaxsning ehtiyojlari va maqsadlariga yo'naltirilgan harakatlanishga ichki tayyorlik.

Adaptatsiya- darajasi fenomeni. Qo'zg'ovchilarning aniq darajasiga moslashish va oqibatda aynan shu darajada sodir bo'ladigan o'zgarishlarga javob berish hamda diqqatni qaratish tendensiyasi.

Adolatli dunyo fenomeni- Dunyo adolatli, shuning uchun odamlar xizmatlariga yarasha narsaga ega bo'lishadi va ega bo'lganlariga yarasha xizmat qilishadi deb ishonishga moyillik.

Atributsiya nazariyasi- odamlar boshqalarning xulqini qanday tushuntirishadi: harakatlar sababini odamning ichki dispozitsiyalari (barqaror sifatlar, motivlar va ustanovkalar)ga bolashadimi yoki tashqi vaziyatlarga?- haqidagi nazariya.

Atributsiyaning fundamental xatosi- Kuzatuvchilarning xulqqa vaziyat ta'sirini kamsitib va dispozitsiya (ichki shaxsiy sifatlar) ta'sirini bo'rttirib baholash tendensiyasi. (Shuningdek mos kelish ishonchi deb ham atalib, biz aksariyat odamning xulqi uning dispozitsiyalariga mos keladi deb hisoblaymiz).

Axloqiy eksklyuziya- Alohida shaxslar yoki guruhlarini axloq va adolat qonunlari amal qiladigan sohadan tashqarida deb idrok qilish. Axloqiy inklyuziya esa aksincha, boshqalarni axloqiy tamoyillar amal qiladigan soha doirasiga qo'shadi.

Bazaviy baho hatosi- Ayni paytdagi hodisa uchungina xarakterli bo'lgan xususiy faktlar ta'siri ostida bazaviy baholovchi informatsiya (ko'pchilik odamlar haqidagi informatsiya) dan to'liq foydalanmaslik yoki uni payqamaslik tendensiyasi.

Baholash qo'rquvi- Bizni boshqalar qanday baholashlaridan havotirlanishimiz.

Bid'at- Guruh yoki uning alohida a'zolariga nisbatan asossiz salbiy ustanovka.

Bixeviorizm-axloqiy psixologiya

Bixevorial tasdiq- Ijtimoiy kutishlar odamlarni shunday harakat qilishga majbur qilib, ularning xulqi boshqalarni shu kutishlarni tasdiqlashga undashga sabab bo'ladigan, o'z-o'zidan amalga oshadigan bashoratlar dpi.

"Begona" guruhning gomogenligi samarasi- "Ularning" guruhi "bizning" guruhimizga nisbatan ko'proq bir biriga o'xshaydi. Shunday qilib "ular bir biriga o'xshashadi; biz turli tumanmiz".

Vikar o'rganish- kuzatish orqali o'rganish (vikar o'rganish

Gender- Psixologiyada- "erkak", "ayol" tushimchasiga aniqlik beruvchi sotsial-biologik tavsifnoma. Jins biologik kategoriya bo'lganligi uchun sotsial psixologlar aksariyat biologik asoslangan gender farqlarini "jinsiy farqlar" sifatida qarashadi.

Gender roli- Erkaklar va ayollar uchun ulardan kutiladigan xulq (norma) namunalari to'plami.

Gallyusinatsiyalar- noto'g'ri idrok qilish.

Gipermoslashuv - shaxsning o'z oliy yutuklari vositasida ijtimoiy hayotga ta'siri orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi.

Giperreflektsiya -o'ta o'z-o'zini refleksiyalash.

Giperintentsiya -(o'z istaklarini qoniqtirishga o'ta e'tibor qaratish) – odam-lar o'z menlari doirasidan chiqib ketmasliklari uchun foydalanishni lozim ko'rgan ikkita asosiy usul.

Graffiti -devorga uyatsiz xarakterdagi rasmlar chizish va yozuvlar yozish.

Gipoteza(faraz)- Erkaklar va ayollar uchun ulardan kutiladigan xulq namunalari to'plami.

Guruhiv qutblanish- Guruh ta'siri tufayli uning a'zolaridagi azaldan mavjud tendensiyalarning kuchayishi; guruh ichida fikrlar bo'linishining o'rniga o'rtacha tendensiyaning o'z qutbiga tortilishi.

Dalillarga qarshi oldindan ishonch- Shaxsiy asossiz fikrni tasdiqlaydigan ma'lumotlarni qidirish tendensiyasi.

Dezinformatsiva samarasi- hodisaning sodir bo'lishida ishtirok etgan odam u haqida yolg'on informatsiya oladi va keyinchalik bu dezinformatsiyani bo'lib o'tgan hodisa haqidagi o'z xotirasiga kiritib qo'yadi.

Deindividuatsiva- O'z-o'zini anglashning yo'qolishi va baholash qo'rquvi; anonim-likni ta'minlaydigan va alohida individga diqqatni tortmaydigan guruhiiy vaziyatlarda paydo bo'ladi.

Depressiv realizm-Yengil depressiya holatida (o'z "Men"i foydasiga emas) ob'yektiv mulohazalar, atributsiya va bashoratlar tuza oladigan odamlar tendensiyasi.

Deprivatsiya- ochlik holati.

Deviant moslashuv - mavjud bo'lgan ijtimoiy talab (me'yor) lardan chetga chiqish vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarish;

Deviant axloq (deviato-lotin tilida og'ishgan) axloq nostandart vaziyatlar oqibati (masalan, jarohatdan keyingi sindrom doirasidagi axloq), o'z-o'zini muhofazalash oqibati (masalan, hayot uchun real xavfning mavjudligida) bo'lmasligi lozim

Deviant (og'ishgan) axloq - mahsuldor emas, destruktiv yoki autodes-truktiv, atrofdagilarning ma'qullamasligini uyg'otadi

Determinizm-Bizning butun xulqimiz qandaydir hodisalar ta'siriga bog'liq va shuning uchun erkin namoyon bo'lmaydi deb tasdiqlash.

Diskriminatsiva- Guruh yoki uning a'zolariga nisbatan nohaq salbiy munosabat.

Dushmanlik agressivasi- Nafrat tufayli uyg'onadigan va shaxsiy maqsadga aylangan agressiya.

Do'stlik-muhabbat- Hayoti bizning shaxsiy hayotimiz bilan chambarchas bog'liq odamga nisbatan his qilinadigan muloyimlik.

Yolg'on konsentsus samarasi- Nojoiz yoki samarasiz xulq, biron bir qarashning keng tarqalganligiga oshirib baho berish tendensiyasi.

Yolg'on noyoblilik samarasi- Qobiliyatlar va o'rinli yoki samarali xulq keng tarqalganligi faktini yetarlicha baholay olmaslik tendensiyasi.

Yon berish- Tashqi ta'sirlar ijtimoiy bosimga mos kelsa ham ichki norozilik ishtirok etadigan konformizm.

Jamoachilik- Shaxsiy maqsadlarga nisbatan u yoki bu guruh (odatda, oila yoki ishchi guruh) maqsadlariga ustunlik berish konsepsiyasi. Shunga mos ravishda o'z-o'zini identifikatsiya qilish amalga oshadi.

Identichlilik diffuziyasi- Yosh yigit yoki qiz kasb yoki mafkuraviy e'tiqodlarni tanlash bilan bog'liq identichlilik inqirozini boshdan kechiradigan yoki boshdan

Kechirmaydigan Ego-identichlilik maqomi, lekin shu bilan birga qiz yoki yigit aniq bir qarorga kelgani yo'q yoki shunday qaror qabul qilishdan hali juda uzoq.

Identichlilik inqirozi- Yosh yigit yoki qiz "Men o'zi kimman?", "Qayoqqa qarab ketayapman?" kabi savollarga zo'r berib javob qidirayotgan vaqt davri. Identichlilik inqirozini boshdan kechirayotgan yoshlarga aksariyat o'z shaxsiy ijtimoiy rollarini aniq tasavvur qilish yetishmaydi va ular ayni vaziyatda o'zlariga qaysi rol ko'proq mos kelishi mumkinligi haqida turli taxminlar qiladilar.

Identichlilikka erishish- Kasb yoki mafkuraviy e'tiqodlarni tanlash bilan xarakterlanadigan inqirozni boshdan kechirish natijasida odam u yoki bu qarorni qat'iy qabul qiladigan Ego-identichlilik maqomi.

Ijtimoiy taqqoslash- O'z fikr va qobiliyatlarini o'zini boshqalar bilan taqqoslash orqali baholash.

Ijtimoiy fasilitatsiya- 1) Birlamchi mazmuni-ko'pchilik orasida oddiy yoki yaxshi tanish vazifalarni yaxshiroq bajarishga undash tendensiyasi. 2) Zamonaviy mazmuni-boshqalar oldida dominant reaksiyalarning kuchayishi.

Ijtimoiy o'rganish nazariyasi- Ijtimoiy xulqqa kuzatish va imitatsiya vositasida hamda mukofotlash va jazolash ta'siri ostida o'rganamiz deb hisoblovchi nazariya.

Ijtimoiy qiziqish- Shaxsiy maqsadlardan ko'ra ko'proq jamiyat manfaatlari uchun boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda namoyon bo'ladigan insoniyatga nisbatan empatiya hissi.

Ijtimoiy yalqovlik- Odamlarning umumiy maqsad uchun o'z kuchlarini birlashtirganlarida, individual ma'suliyatga nisbatan kamroq jon kuydirishlari.

Ingratsiatsiya- Boshqa odamlarni o'ziga moyil qilishga intilish maqsadida, masalan, maqtovga o'xshagan strategiyalardan foydalanish.

Individualizm- Guruh maqsadlariga nisbatan o'z shaxsiy maqsadlariga ustunlik berish konsepsiyasi. Bunda o'z-o'zini identifikatsiya qilish o'zini guruh bilan o'xshatish orqali emas balki shaxsiy atributsiyalar vositasida amalga oshiriladi.

Instinktiv xulq- O'rganish bilan bog'liq bo'lmagan, shu turning hamma vakillarida namoyon bo'ladigan tug'ma xulq.

Instrumental agressiya- Qandaydir boshqacha maqsadga erishish vositasi bo'lgan agressiya.

Informatsion ta'sir- Boshqa odamlarning reallik haqidagi mulohazalarini qabul qilish natijasida paydo bo'ladigan konformizm.

Irqchilik- 1) Alohida irq vakillariga nisbatan individual noto'g'ri ustanovkalar va kamsituvchi xulq yoki 2) alohida irq vakillariga tobelik holati majbur qilinadigan institutsional amaliyot (hatto bu amaliyot bidoat bilan motivlashgan bo'lsa ham).

Ichki guruh e'tirofi- O'z guruhiga ijobiy munosabatda bo'lish tendensiyasi.

Ixtiyoriylik- o'z-o'zini nazorat.

Id- nisbatan o'zgarmas va to'la ongsiz, biroq uning mavjudligi va hukmronligi derivappar-fikrlar, harakatlar va hissiyotlardan chiqarilishi mumkin.

Imitatsiya - qo'rquvga taqlid qilish orqali o'rganish mumkin

Ijtimoiy-psixologik moslashmaganlik - o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va moslashish jarayonlarini to'sish holati

Ichki lokus -qaram emaslik, mustaqillik, mas'uliyatlilik.

Intilish- o'sish va rivojlanish.

Katarsis- Emotsional bo'shanish. Agressiyani katarsis orqali shunday tushuntirish mumkin: individuum agressiv energiyani yoki agressiv harakat vositasida, yoki tasavvurdagi agressiya hisobiga "ozod qilganda" agressiv qo'zghalish susayadi.

Kognitiv dissonans- Biri biriga qarama qarshi bo'lgan ikkita fikr paydo bo'lganligini anglashda paydo bo'ladigan zo'riqish. Masalan, biz yetarlicha asosga ega bo'lmay turib, o'zimizning ustanovkalarimizga qarama-qarshi harakat qilganimizda yoki mantiq boshqasini talab qilib turib boshqa variant foydasiga qaror qabul qilganimizda dissonans paydo bo'ladi.

Kommunikatsiya kanali- Yuzma-yuz, yozma, kinoplyonkada yoki boshqa biron yo'l bilan ma'lumot uzatish usuli.

Konflikt- Idrok qilinadigan harakat va maqsadlar nomuvofiqligi.

Konformizm- Guruhning real yoki tasavvurdagi bosimi ostida xulq yoki e'tiqodlarni o'zgartirish.

Ko'chirish- Agressiyani frustratsiya manbaidan boshqa nishonga o'tkazish. Yangi nishon odatda ijtimoiy ma'qulroq bo'ladi.

Konformistik moslashuv - individuallikni bostirish, o'z-o'zini ro'yobga chiqarishni birlashishi.

Kreativ (ijodiy) axloq - yangi g'oyalarni amalga oshiradi, o'ziga xos, mahsuldor, taraqqiyparvar, me'yorning o'zini o'zgartirishga olib kelishi mumkin, biroq qator hollarda atrofdagilarning qarshiligini uyg'otadi.

Koping-ijtimoiy moslashuvning muhim jarayoni sifatida ko'rib chiqi-ladi.

Kimyoviy moddalarga muhtojlik-psixofaol moddalarni suiiste'mol qilish.

Krizisli vaziyat oqibati-yaqin odamining o'limi tufayli birinchi oy davomidagi qayg'u reaksiyasi

Moslashish - ijtimoiy muhitning yetakchi talablariga muvofiqlik.

Mahsuldorlik-ongli maqsadlarni amalga oshirish. Shaxs xulqining shun-day belgilari borki, ular anchagina xususiy, biroq kam bo'lmagan ahamiyatga egadir.

Me'yoriy «standart» axloq-ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushadi, atrofdagilarning ma'qullashini uyg'otadi va me'yoriy moslashuvga olib keladi. Umuman olganda, u garchi individuallikdan mahrum bo'lsada, vaziyatga teng, mahsuldor.

Marginal-cheklangan axloq - ijtimoiy me'yorlarning eng oxirgi chegarasida turadi, me'yor chegaralarini buzadi va kengaytiradi, atrofdagi odamlarda zo'riqish tug'diradi.

Madaniyat- Odamlarning katta guruhi uchun umumiy bo'lgan, avloddan avlodga uzatiladigan tushunchalar, ustanovkalar, odatlar va xulq xususiyatlari.

Ma'qullash- Ijtimoiy bosimga mos harakat va e'tiqodni o'z ichiga oladigan konformizm.

Mukofotlovchi istaralilik nazariyasi- Kimning xulqi biz uchun foydali bo'lsa, yoki kim biz uchun foydali voqealar bilan bog'liq bo'lsa, shu odamlar bizga yoqishi haqidagi nazariya.

Noogen nevrozi-"Ruhiiy muammo, ma'naviy yoki etik nizolar orqali chaqiriluvchi" sifatida ta'riflaydi.

Nostandart axloq- tafakkurning yangi shakli, yangi g'oyalar, shuningdek, axloqning ijtimoiy stereotiplari doirasidan chiquvchi harakatlarga ega bo'-lishi mumkin

Nostandart-«nome'yoriy» axloq-ushbu jamiyatda ushbu vaqtda qabul qilingan kamchilik odamlarga xos me'yorlar chegarasidan chiqadi.

Narsisik - shaxsiy buyukligi tuyg'usi bilan boshqariladi.

Onglilik -o'z axloqini tushunish uni so'z bilan tushuntira olish qobiliyati.

Og'ishgan xulqli odamga yordam ko'rsatish- degani unga o'z ruhiy «men»ini anglash va kelgusida uning o'z mavjudligi mazmunini ochish bilan o'z taqdiri uchun mas'uliyatni kabul qilish yordamlashish demakdir.

Proyektsiya - vositasida individ uchun nomaqbul istak yoki tasavvur tashqi dunyoga qo'shimcha yozib qo'yiladigan jarayon

Patologik axloq - tibbiy me'yorlardan og'ishadi, aniq simptomlar shaklida namoyon bo'ladi

Promiskuitet -tartibsiz jinsiy aloqa.

Rad etish - tashqi dunyoning qandaydir talablari, shaxs uchun uning kasalliklari oqibatini inkor qilish.

Regress - rivojlanishning kam yetilgan darajasiga qaytish;

Radikal moslashuv - shaxsning mavjud ijtimoiy hayotda o'zgarishi orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi.

Reaktsiyaning shakllanishi-impulsni uning qarama-qarshisiga aylanti-rish (masalan, onaga bo'lgan siqib chiqarilgan nafratni u haqida o'ta g'amxo'rlikka nisbatan).

Super-Ego- oldidagi ko'rquv (latent davomida va u tug'aganidan keyin) bo'ladi.

Submadaniy deviatsiyalar -sleng, shramlash, tatuirovkalar.

Subyaimatsiya - ijtimoiy maqbul o'zanda instinktiv impulsar yo'nalishi, masalan, intellektual muhitga, ijodga.

Suisidal axloq – O'zini o'ldirishga harakat.

Turg'unlik-turli vaqt va turlicha vaziyatlarda ko'rinishlarning doimiyligi

Tasviriy idrok- Ko'proq janjallashayotgan tomonlarda paydo bo'ladigan bir-biri haqidagi o'zaro salbiy fikr; masalan, o'z tomoni har doim axloqiy va tinchliksevar, qarshi tomon axloqsiz va agressiv deb hisoblanadi.

Torlik- Bitta odamga to'g'ri keladigan maydonning sub'yektiv yetarli emaslik hissi.

To'laqonli emaslik hissi- Bolalikda paydo bo'ladigan va keyinchalik balog'at yoshida boshqalardan ustunlik uchun kurashga asos bo'lib xizmat qiladigan shaxsiy to'laqonli emaslik, beo'xshovlik va noqobillik hissi.

Ustanovka (attityud)- Fikr, hissiyot va maqsadga yo'naltirilgan xulqda namoyon qilinadigan, nimagadir yoki kimgadir nisbatan ijobiy yoki salbiy baholovchi reaksiya.

Ustanovkalarni emlash- Keyinchalik yanada kuchliroq hujumga qarshilik uchun zamin hozirlash maqsadida odamlarning ustanovkalariga kuchsiz hujum usuli.

Uyg'unlashgan moslashuv - shaxsning jamiyatda ijtimoiy talablarga yo'nalishi vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

Frustratsiya- Maqsadga yo'naltirilgan xulqning tutilib qolishi.

Fanatik - kandaydir g'oya, nuqtai nazarga ko'r-ko'rona berilgan holatda yuzaga chiqadi.

Fanatik axloq -masalan, destruktiv-diniy madaniyatga tortilish.

Faollik darajasi -energiyalilik va tashabbuskorlik.

Egiluvchanlik- muhitning o'zgarishiga javoban axloqni o'zgartirish

Ego - Id intilishlarini boshqarish uchun ushbu oila chegaralarida ochiq bo'lgan yo'lni topish va hayot talablariga moslashish imkonini beruvchi o'sha vazifalar nomidir. Ego butun hayot davomida uzluksiz, biroq birmuncha tezroq - ilk go'daklikdan boshlab rivojlanadi.

Haqqoniylik - individuallik axloqining mosligi, uning ushbu shaxs uchun tabiiy ekanligi.

Hissiy ifodalanganlik -namoyon etilayotgan affektlarning kuchi va xarakteri.

Xindsavt xatosi- Biron-bir odamning natija ma'lum bo'lib bo'lgandan so'ng o'zining oldindan ko'ra bilish qobiliyatini bo'rttirish tendensiyasi. Shuningdek, "men shunday bo'lishini bilardim" fenomeni sifatida ham mashhur.

O'z - o'zini idrok qilish nazariyasi- Shaxsiy ustanovkalardagi ishonchsizlik bizni ular haqida "o'zimizni kuzatish" - ustanovkalar namoyon bo'ladigan vaziyatlar va xulqimizni tekshirish orqali xulosa chiqarishga majbur qiladi deb hisoblovchi nazariya.

O'z "Men"i foydasiga moyillik - O'z-o'zini qoyilmaqom idrok qilish tendensiyasi.

O'z guruhi foydasi uchun qayurish- Begona guruh a'zolarining ijobiy xulqini ma'lum oqlashlar bilan tushuntirish; salbiy xulqini ularning dispozitsiyalari bilan tushuntirish (ayni o'z guruhining shunday xulqini oqlash).

Qiyosiy deprivatsiya- O'zining ahvolini boshqalarga nisbatan yomon deb idrok qilish.

